

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O`RTA-MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI
JAHON SIYOSATI VA TARIX FAKULTETI

UDK:

BBK:

P-

SODIQOV FURQAT FATULLAYEVICH

MUHAMMAD ALI BALJUVONIYNING
“TARIXI NOFEIY” ASARI TARIXIY MANBA SIFATIDA

5A220204-Tarixshunoslik, manbashunoslik
va tarixiy tadqiqotlar metodlari mutaxasisligi

Magistrlik akademik darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYASI

Ilmiy rahbar: t.f.d.To`rayev H.H.

Toshkent 2012

MUNDARIJA

KIRISH.....	3-7
--------------------	------------

I BOB “TARIXI NOFEIY ” ASARI XX ASR BOSHIDA BUXORO AMIRLIGIDAGI IJTIMOIY-SIYOSIY AHVOLNI O’RGANISHDA MANBA SIFATIDA	
I.1. “Tarixi nofeiy” asarida XX asr boshida Buxoro amirligining ijtimoiy hayoti to`g`risida.....	8-16
I.2. “Tarixi nofeiy” asarida Buxoroda sho`rolar hokimiyatining o`rnatalishi masalalarining yoritilishi.....	16-26
II BOB BUXORO AMIRLIGINING MA`MURIY TUZILISHI	
II.1. Amir va uning vakolatlari	27-33
II.2. Amirlikdagi mansablar va ularning vazifalari.....	33-42
III BOB “TARIXI NOFEIY ” ASARIDA BUXORODA MADANIY-MA`RIFIY HAYOTNING AKS ETISHI	
III.1. Masjid va madrasalar.	42-52
III.2. Ma`muriy - xo`jalik binolari.....	52-61
XULOSA.....	62-65
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI.....	66-69
ILLOVA.....	70-80

Kirish

Mavzuning dolzarbligi. Sobiq Sovet tuzumi davrida O'zbekistonnig boy merosi hukmron kommunistik mafkura nuqtai - nazaridan o'r ganilib, tarixiy yozma manbalar chetlab o'tildi. Lekin xalqimiz qadimdan saqlanib kelayotgan urfodatlari, tili, dinini saqlab qoldi. Bu xalqimizning eng katta yutug'idir. Zero, Prezidentimiz Islom Karimov ta'kidlaganlaridek: "Xalqimiz har qanday to'fon va suronlarga qaramasdan, milliy o'zligi va azaliy qadriyatlarini saqlab qolib, bugungi dorilomon zamonlarga bezavol yetib kelishida uning qon-qoni, suyak-suyagida bo'lgan ma'naviy jasorat tuyg'usi, hech shubhasiz, hal qiluvchi ta'sir o'tkazib kelmoqda"¹.

Mustaqillik tufayli tarixiy tadqiqotlar doirasi kengaydi va olimlarimiz tomonidan bir qator manbalar o'r ganildi. Tarix fanining dolzarb muammolari va vazifalari o't mishda, jumladan o'tgan tarixiy shaxslarga haqqoniy, xolisona baho berish, o'zbek xalqi va o'zbek milliy davlatchiligi tarixinining bosqichlarini yoritish, Rossiya imperiyasi va sovet mustabid tuzumi davrlarini yangidan o'r ganish kabilar yurtimiz tarixchilari tomonidan o'r ganilmoqda desak xato bo'lmaydi. Ma'naviyatimiz sarchashmalari hisoblangan yuzlab qadimgi va o'rta asrlarda yozilgan qo'lyozma asarlar amaldagi imloda chop etildi.

Shu o'rinda XVI asrning boshlarida tashkil topib, XX asrning 20-yillariga qadar mavjud bo'lgan Buxoro davlati tarixini o'r ganish, uning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotini shu davrlarda yozilgan mahalliy manbalarning o'rni beqiyosdir. Buxoro davlati tarixi o'zbek davlatchiligining ajralmas qismi bo'lib, o'zining o'ta murakkabligi va serqirraligi bilan ajralib turadi. Yurtboshimiz ta'kidlaganlaridek: "Buxoro tarixi shukuhli va muborak kunlar bilan bir qatorda, juda og'ir va musibatli damlarga ham guvoh bo'ldi, ko'plab bosqinlarni boshdan kechirdi, necha marotaba vayron etildi, o't ichida qoldi. Bu muqaddas tuproqda begunoh qonlar to'kildi, muhtasham obida, minora va aziz avliyolar qabrlari oyoq osti qilindi".²

¹ Каримов. И .А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Тошкент: Маънавият. 2011. – Б.163.

² Каримов И.А.Хавфсизлик ва барқарорлик тараққиёт йўлида. 6-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон, 1998. – Б.372.

Buxoro tarixnavislik maktabi namoyondalari tomonidan 50 ga yaqin tarixiy, tarixiy – adabiy va biografik asarlar yaratilgan. Bulardan juda ko`p qismi bugungi kunga qadar olimlarimiz tomonidan maxsus tadqiq qilinmagan va vatanimiz tarixi uchun muhim hisoblangan aksariyat manbalar esa, o`zbek tiliga o`girilmagan. Muhammad Ali ibni Muhammad Sayid Baljuvoniyning “Tarixi nofeiy” nomli asari Buxoro amirligining XX asr boshlaridagi ijtimoiy-siyosiy tarixini yoritib beruvchi manbalardan hisoblanadi. Asarda Buxoro inqilobi, sobiq Sovet davlatining Buxoro davlatiga nisbatan olib borgan siyosati voqealar guvohi tilidan bayon qilinadi. Shu bilan birga amirlikdagi mansab va lavozimlar, ularning vazifalari bayoni tadqiqotning dolzarbligini oshiradi.

“Tarixi nofeiy” asarining muallifi ko`p masalalarni haqqoniy va xolis baholagan, hissiyotlarga berilmagan. Buxoro amirligida davlatning idora etilishiga oid ma`lumotlari, jadidlar va tarixiy shaxslarga bergen baholari, Buxoro inqilobi va uning oqibatlariga bo`lgan munosabatlari nihoyatda ahamiyatli va qiziqarlidir.

“Tarixi nofeiy” asarida Buxoroning ma`rifiy-madaniy hayoti to`g`risida qimmatli ma`lumotlarni keltirilgan. Bunga misol qilib shahardagi madrasa va masjidlar, ma`muriy xo`jalik binolari to`g`risidagi ma`lumotlarni keltirish mumkin.

Tadqiqotning o`rganilish darajasi. Buxoro amirligining tarixi qiziq va murakkabdir. Ko`plab olimlar Buxoro tarixi ustida tadqiqot olib borishgan. Shulardan biri Muhammad Ali Baljuvoniyning “Tarixi nofeiy”(Foydali tarix) asaridir. “Tarixi nofeiy” asarida yozilishicha mazkur asarni muallif Buxoro va Samarqandda bo`lgan birodar va do`stlarining iltimosiga asosan yozganini aytib o`tgan. Dastlab mazkur asarni olim Ahror Muxtorov arab imlosida nashr ettirgan bo`lib, Muhammad ali Baljuvoniy to`g`risida o`z fikrlarni bildiradi: “Tarixi nofeiy” nomli asar nafaqat O`rta Osiyo xalqlari tarixi bilan qiziqgan muxlislarga, balki tarixchilarga ham ma`lum emasdi. Asarning muallifi Muhammad Ali ibni Muhammad Sayid Baljuvoniyning o`g`li bo`lib, uni faqat qariya hamqishloqlari eslaydilar. Muhammad Ali rajab oyining 18-kuni hijriy 1341 (milodiy – 1923 yili, 12 fevral) sana Samarqand shahrining Tillakori madrasasida “Tarixi nofeiy”

asarini yozishga kirishib, hijriy 1346 yili muharram oyining 22-kuni (milodiy-1927 yil 22 iyun) uni Baljuvonning Beshtang qishlog'ida nihoyasiga yetkazgan. Muhammad Ali Samarqand va Buxoro madrasalarida tahsil ko'rib, bir muddat davlat ishlariga ham aralashib yurgan".³

"Tarixi nofeiy" asari 15 bob(maqсад)dan iborat. Asar boblarining nomlari keltirilgan bo'lsada, asarda faqat 7 ta bob mavjud. Qolgan boblarning nima uchun keltirilmaganligini aniqlay olmadik.

Mazkur asarning o'zbek tiliga tarjima qilinishida Shodmon Vohidovning xizmatlari katta. Domla asarni tadqiq qilib, o'z maqolasini e'lon qilgan.⁴ Shu bilan birga Ahror Muxtorovning tarjimasi asosida mazkur asarni Zoir Choriyev bilan birga o'zbek tiliga o'girib, nashr etishgan.⁵

"Tarixi nofeiy" asari bizga ma'lum bo'lgan bir qator asarlarning ma'lumotlarini to'ldiradi, ba'zan yangicha talqin qilish uchun yordam beradi. Muhammad Ali bayon qilgan davrning ba'zi bir masalalari Ahmad Donish, Sadriddin Ayniy, Sadri Ziyo, Abdurauf Fitrat, Fayzulla Xo'jayev kabi mahalliy tarixchilarining asarlarida tadqiq qilingan.⁶ Shu bilan birga V.V Bartold, M. Andreyev va O. Chexovich, L.I.Rempel, A. Vil'danova, A.A.Semyonov, O.A.Suxareva, Q.Rajabovlar ham o'z asarlarida Buxoro tarixi, uning madaniy hayoti to'g'risida ma'lumot bergenlar.⁷ Sho'ro qo'shinlarining Buxoro amirligini

³ Мұхаммад Али ибни Мұхаммад Сайд Балжувоний: Тарихи нофей. – Душанбе: Ирфон, 1994 – Б.3.

⁴ Воҳидов Ш. Тарихи нофей. Бухоро амирлиги тарихига оид мӯҳим манба.

//Ўзбекистонда ижтимоий фанлар, 1997. – № 9 - 11. – Б. 48-54.

⁵ Мұхаммад Али Балжувоний. Тарихи нофей. /Тожик тилидан таржима, сўз боши ва изоҳлар муаллифлари Шодмон Воҳидов, Зоир Чориев. – Тошкент: Ақадемия, 2001. – 122 б.

⁶ Садриддин Айний. Асарлар. VIII томлик. I, IV ва VII томлар. – Тошкент: Фан, 1965. – 411 б; Садри Зиё. Наводири Зиёя. – Душанбе, 1991; Абдурауф Фитрат. Амир Олимхоннинг ҳукмронлик даври. – Тошкент: Минҳож, 1992. – 62 б, Shu muallif . Рассказы индийского путешественника./ Перевод с персидского А.Н.Кондратьева. – Тошкент, 2007. – 98 с; Файзулла Хўжаев. Танланган асарлар/ I том. – Тошкент Фан, 1976. – 536 б.

⁷ Бартольд В.В. Церимониал при дворе узбекских ханов в XVII веке. – Сочинения т. II. ч. 2. – Москва: Наука, 1962. – С.392; Shu muallif . Бухара. Её памятники и их судьба. – Сочинения т. IV. ч.1 – Москва: Наука, 1965, Shu muallif . История культурной жизни Туркестана. – Сочинения т. II. ч. I –Москва: Наука, 1963. – С.144.

Андреев М.С, Чехович О.Д. Арк-кремль Бухары. – Душанбе, 1972. – 164 с; Вильданова А. Б. Подлинник бухарского трактата о чинах и званиях// Письменные памятники Востока. – Москва –Ленинград, 1970; Ремпель Л. И. Далёкое и близкое. Страницы жизни, быта, Строительного дела, ремесла и искусства старинной Бухары. – Тошкент, 1981. – 304 с; Семёнов А. А. Бухарский трактат о чинах и званиях и об обязанностях носителей их в средневековой Бухаре. //Советское востоковедение, т. V. Москва. – Ленинград. 1948; Сухарева О. А. Бухара конца XIX – начала XX в. – Москва: Наука, 1966. – 328 с, Shu muallif . Квартальная община позднефеодального города Бухары. – Москва: Наука, 1976. 367 с; Ражабов К. Бухорога қизил армия босқини ва унга қарши кураш: тарих ҳақиқати. – Тошкент: Маънавият, 2002. – 144 бет.

bosib olish voqealari tarixi bo'yicha Mirzo Salimbek, Alimova D, Rashidov U, Xoliqova R, Tuxtametov T, Ishanov A, Inoyatov X va boshqalar ham tadqiqot olib borganlar.⁸ Amirlikning boshqaruv tartibi va mansablari to'g'risida ham ko'plab olimlar ish olib borishgan.⁹

Tadqiqotning maqsad va vaziflari. Mazkur magistrlik dissertatsiyasidan ko'zda tutilgan asosiy maqsad Muhammad ali Baljuvoniyning "Tarixi nofeiy" asarida XX asr boshida Buxoro amirligidagi ijtimoiy-siyosiy, madaniy hayotni yoritilish masalasini o'rghanishdan iborat bo'lib, uni amalga oshirish uchun quyidagi vazifalar belgilab olindi:

- "Tarixi nofeiy" asarida XX asr boshida Buxoro amirligining ijtimoiy hayotini yoritish;
- "Tarixi nofeiy" asarida Buxoroda sho'rolar hokimiyatining o'rnatilishi masalalarini aks ettirish;
- Amir va amaldorlarning vakolatlari va vazifalari to'g'risida ma'lumot berish;
- Amirlidagi madaniy – ma'rifiy hayotni tahlil qilish;

Tadqiqotning obyekti va predmeti. Muhammad ali Baljuvoniyning "Tarixi nofeiy" asari asosida Buxorodagi XX asr boshidagi ijtimoiy-soyosiy hayot tarixini o'rghanish.

Tadqiqotning nazariy-metodologik asoslari. Tadqiqotning ilmiy konsepsiysi masalaga tarixshunoslik va qisman manbashunoslik nuqtai nazaridan yondashish asosida Muhammad ali Baljuvoniyning "Tarixi nofeiy" asarida XX asr

⁸ Мирза Салимбек. Тарих-и Салими. – Ташкент. Академия, 2009. – 330 с; Алимова Д, Рашидов У. XIX аср охири – XX аср бошларида Бухородаги сиёсий ҳаракатлар ва курашлар. – Бухоро. Зиё Ризограф, 2009. – 78 б; Холикова Р. Россия-Бухоро тарих чоррахасида. Монография. – Тошкент: Ўқитувчи, 2005.

Тухтаметов Т.Г. Русско-Бухарские отношения в конце XIX – начале XX вв. – Ташкент: Фан, 1966. – 178 с. Ишанов А.И. Бухарская Народная Советская Республика. – Ташкент: Узбекистон, 1969. – 382 с; Иноятов Х.Ш. Народы Средней Азии в борьбе против интервентов и внутренной контрреволюции. – Москва. 1984. – 345 с; Қосимов Ф. Рашидов У. Тарих ва тақдир.// Фан ва турмуш.1995, №41. 5-бет.

⁹ Анке фон Кюгельген. Легитимация Средноазиатской династии мангитов в произведениях их историков. – Алматы: Дайк-пресс, 2004. – 515 с; Вохидов Ш.Қўқон хонлиги ва Бухоро амирлигига унвон ва мансаблар. Тошкент: 1996. – 32 б; Епифанова Л.М.Рукописные источники по истории Средней Азии периода присоединения к России. – Ташкент: Наука, 1965. – 75 с; Мирза Бадиъ Диван. Мажмая ул-аркам. /Введение, перевод, примечание и приложение А.Б. Вильдановой. – Москва: Наука, 1981. – 328 с; Сайд Мансур Олимий. Бухоро-Туркестон бешиги. /Форс тилидан таржима, таржимон номидан сўз боши ва айрим изохлар муаллифи Ҳалим Тўраев. – Бухоро, 2004. – 125 б.

boshida Buxoro amirligida kechgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga muallifning munosabatini aniqlash va o`rganishdir. Ayni paytda Buxoro amirligi siyosiy tarixi, unda kechgan ijtimoiy-siyosiy, madaniy jarayonlarni xolislik tamoyiliga tayangan holda tahlil qilish ko`zda tutiladi.

Shuningdek, O`zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning o`zbek davlatchiligi tarixi, milliy mafkura, ma`naviyat masalalariga bag`ishlangan asarlari, mahalliy va xorijlik olimlarning tarixshunoslik, sharqshunoslik, manbashunoslik sohalarida olib borgan tadqiqotlari mazmunidan kelib chiqgan ilmiy xulosalar mazkur ishning nazariy asosini tashkil etadi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. Tadqiqotning ilmiy yangiligi Muhammad ali Baljuvoniyning “Tarixi nofeiy ” asarida Buxoro amirligi ijtimoiy-siyosiy hayotining yoritilishi, unga muallifning munosabati masalasi bo`lib, mazkur magistrlik ishida qo`yilgan maqsad va vazifalar doirasida erishilgan ilmiy yangiliklarning ayrim jihatlarini quyidagilarda ko`rish mumkin:

- Muhammad ali Baljuvoniyning “Tarixi nofeiy ” asarida Buxoro amirligi ijtimoiy-siyosiy, madaniy hayotiga doir ma`lumotlar to`planib, tahlil qilindi;
- Faqat “Tarixi nofeiy ” asarida mavjud bo`lgan Buxoro amirligining bolsheviklar tomonidan bosib olinishi masalasiga doir voqe-hodisa va ma`lumotlar o`rganildi;
- Muhammad ali Baljuvoniyning “Tarixi nofeiy ” asarida o`zi ko`rib, guvoh bo`lgan siyosiy voqealar, mavjud muammo va kamchiliklar yoritildi;

Tadqiqotning ilmiy – amaliy ahamiyati. Ushbu ilmiy ish natijalari oliy `quv yurtlari, kollejlar, aqademik litseylarda tahsil olayotgan talaba va o`quvchilar uchun “O`zbekiston tarixi”, “Manbashunoslik” kabi fanlardan maxsus kurslar o`tish, ma`ruza matnlari va uslubiy ko`rsatmalar tayyorlash hamda talabalar mustaqil ta`limini tashkil etishda foydalanish mumkin.

Dissertatsyaning tuzilishi va hajmi. Mazkur magistrlik dissertatsiyasi kirish, uch bob, olti band, xulosa, foydalilanigan adabiyotlar ro`yxati hamda ilovadan iborat. Magistrlik dissertatsiyasining umumiylajmiy hajmi 70 betdan iborat.

**I.BOB. “TARIXI NOFEIY ” ASARI BUXORODAGI XX ASR
BOSHLARIDAGI IJTIMOIY-SIYOSIY AHVOLNI O’RGANISHDAGI
MANBA SIFATIDA.**

**I.1.“Tarixi nofeiy” asarida Buxoroning XX asr boshlaridagi ijtimoiy hayoti
to`g`risida**

Buxoro amirligi XX asr boshida O`rta Osiyodagi mavqeい jihatidan kuchli davlat edi. Buxoroning maydoni 225 ming kv km bo`lib, uch millionga yaqin aholi istiqomat qilgan. Amirlik aholisining katta qismini o`zbeklar tashkil etgan bo`lib, ular juda ko`plab urug`larning vakillari hisoblangan. O`sha davrda Buxoro amirligida o`zbeklarning umumiy soni 1.5 mln kishi deb ko`rsatilgan.¹⁰ O`zbeklardan so`ng ikkinchi o`rinda son jihatdan tojiklar turishgan. Ularning umumiy soni 150 ming deb berilgan. Boshqa bir manbalarda ularning soni 650 ming deb ko`rsatilgan.¹¹ Tojiklar asosan zich holatda yirik shaharlarda Samarqand, Buxoro, Kitob, Urgut va tog`li hududlarda jumladan Panjikent, Dushanbe, Vaxsh bo`ylarida amirlik janubi, asosan Afg`oniston bilan chegaradosh bo`lgan yerlar, Hisor – Darvoz, Qorategin, Ko`lob, Baljuvon, Qabodiyon va Yakkabog` bekliklarida, Zarafshonning yuqori qismida esa Falgar, Matcho, Yakkatut va Fon bekliklarida va Qo`shtut, Mag`iyonda yashashgan.

Turkmanlar ham son jihatdan aholini katta qismini tashkil qilib, Buxoro amirligiga qarashli bo`lgan Amudaryoning ikki qirg`og`ida joylashgan yerlarda, ya`ni amirliklarning janubiy va g`arbiy hududlarida istiqomat qilishgan. Turkmanlarning aksariyati Chorjo`y, Burdaliq, Karki, Sherobod va Qo`rg`ontepa bekliklariga qarashli yerlarda dehqonchilik va chorvachilik bilan mashg`ul bo`lishgan. Turkman viloyati 100 tadan – 500 tagacha aholi punktlaridan iborat bo`lib, tumanlar hududiga teng kelardi. Ma`lumotlarda Buxoro amirligida yashagan turkmanlar soni taxminan 200 ming kishi deb ko`rsatilgan.¹²

¹⁰Холикова Р. Россия-Бухоро тарих чорраҳасида. – Тошкент: Ўқитувчи, 2005. – Б.75.

¹¹Тухтаметов Т.Г. Русско-Бухарские отношения в конце XIX – начале XX в. – Тошкент: Фан, 1966. – С.4.

¹²Ўзбекистоннинг янги тарихи. 1-китоб. Туркистон Чор мустамлакачилиги даврида. Редколлегия:Ҳ.Содиков, Р.Шамсутдинов, П.Равшанов, Қ.Усмонов. Тошкент: Шарқ, 2000. – Б.464.

Amirlik aholisini kichik qismini arablar tashkil qilib, ular asosan Qarshi va Sherobod hududlarida yashagan. Shuningdek, Buxoro amirligi hududida forsiylar, yahudiylar, hindlar, lo'lilar, afg'onlar, qoraqalpoqlar, qozoqlar va qalmoqlar yashagan. Qalmoqlar Buxoro shahrida, qoraqalpoqlar esa Zarafshon, Amudaryo va Sirdaryoning quyi oqimlarida, qozoqlar esa Buxoro amirligining shimoli – sharqida, oz miqdorda Rossiya fuqaroligiga mansub bo'lgan, asosan savdo ishlari bilan mashg'ul bo'lgan tatarlar ham istiqomat qilganlar.

1916 yil ma'lumotlariga qaraganda har bir tumanda 120 tadan – 340 tagacha aholi manzillari bo'lgan. Buxoro amirligining viloyatlari Zarafshon, Qashqadaryo, Surxondaryo va Amudaryo vohalarida joylashgan. Eng katta viloyatlar mamlakatning sharqida joylashgan. 1914-1916 yil ro'yxatiga qaraganda Baljuvonda – 1420 ta, Hisorda – 1200, Qorateginda – 700, Ko'lobda – 635 ta aholi punkti bo'lgan.¹³

Buxoro amirligida 1913/14 yillarda 251,8 ming aholi istiqomat qilgan bo'lsa, 1923/24 yillarda 180 ming aholi ro'yxatga olingan. "Tarixi nofeiy" asarida esa 1916 yilda Buxoro shahrida 80 ming aholi yashagini, sho'rolar bosib olgach 60 ming aholi qolganini yozib qoldirgan. 1926 yilga kelib Buxoro shahrini o'zida 41 839 aholi ro'yxatga olingan.¹⁴

Buxoro amirligi XX asr boshiga kelib ishlab chiqarish va texnologiya bo'yicha g'arbdan orqada qolib ketgan, monarxiya tuzumidagi davlat edi. Ijtimoiy tumush darjasи past, dehqonlarni ahvoli o'ta og'ir edi. Amirlikdagi aholining faqatgina 8-10 foizini tashkil etadigan amaldor va savdogar boylar esa rohat-farog'atda yashar edi.

Amirlikdagi amaldorlar ichida poraxo'rlik gullagan edi. Qozi va hokimlar amir va saroy ahliga har yili haddan tashqari peshkash, hadya, tortiq va pora berar edi. Pora beruvchilarning hech qaysisi buni o'z hamyonidan bermagan, balki ikki-uch hissa ortiq qilib aholidan, ayniqsa, dehqonlardan undirganlar. Buxoro

¹³ Бартольд В.В.Географический очерк Мовареннахра /Сочинения. Т.И. Москва, 1965 – С.166.

¹⁴ Сухарева О.А.Бухара конца XIX - начала XX в.– С.101.

hukumatida amirdan tortib kichkina hukumat ma`muringacha tortiq va porani bekor qilishga qarshi bo`lganlar.¹⁵

Amirning o`zi esa Buxoroda bo`layotgan voqealarga befarq bo`lib, ko`plab vaqtini shahardan tashqarida, chorbog`larda o`tkazgan. Amir Abdulahadxon amirlikni Karminadan turib boshqargan bo`lsa, amir Olimxon ko`plab vaqtini yozgi saroy Sitorai Mohi Xossada¹⁶ o`tkazgan. Amir Olimxon davrida davlat ishlari to`liq qo`shbegi, qozikalon, raisi kalon va xazinachi qo`liga o`tgan edi. Amir esa beparvolik qilib, aysh-ishrat bilan yurgan. Mazkur fikrga misol keltiradigan bo`lsak, amirlikdagi amaldorlardan bo`lgan Mirzo Salimbek “Tarixi Salimi” memuar asarida 1918 yil Buxoro shahrida afg`on harbiy guruhlarining talonchiligi to`g`risida ma`lumot berarkan: “Afg`onlar besh oy davomida Buxoroni har bir uyi, bog`larini talab, odamlarni qiynab, ulardan ot va mol-mulklarini tortib olib, beboshlik va rasvogarchiliklarni amalga oshirishdi. Lekin shu davr ichida arkda turgan amir bunday bedodliklardan xabarsiz edi. Bunday talonchilik va yovuzlikni Buxoro ahli Chingizzon va Xulagu davridan beri ko`rmagan edi”¹⁷. Nahotki Buxoro arkida turgan amir besh oy odamlarning tinchini buzib, ularni talagan afg`onlarning zulmlaridan xabarsiz bo`lishi mumkin. Axir u amir, davlat uning qo`lida, har soatda bo`ladigan voqealar unga kelib turishi kerak. Bu misollardan keyin haqiqatda ham Buxoro amiri xalq u yoqda tursin, davlat ishlarini ham unutib qo`ygani to`g`risida xulosa chiqarish mumkin. Agar amir shunday bo`lsa, boshqalardan nima kutish mumkin...?

Buxorodagi amir va amaldorlarning ilmsizligi, boylikka ruju qo`yib, faqat o`zini o`ylashi to`g`risida “Tarixi nofeiy ” asarida quyidagi fikrlar mavjud: ”Buxoro sultanatining ravnaqi mashhur, lekin siyosati yo`qdir. Vaholanki, podshohlar siyosat ilmini bilishlari lozim bo`lgan. Dushmanga qarshi siyosat qilish bilan birga odamlarning hayotini saqlab qolish darkor. Ming afsus! Davlatimizda askar-u qurol boru, ammo bu askarda siyosat va jasorat yo`q! Siyosiy hokimlarimiz

¹⁵ Абдурауф Фиграт. Амир Олимхоннинг хукмронлик даври. – Б.32-33.

¹⁶ “Oymonand yulduzlar saroyi” ma`nosini anglatadi. Buxorodan 6 km shimoli-g`arbda joylashgan Buxoro amirlarning yozgi saroyi.

¹⁷ Мирза Салимбек. Тарих-и Салими. – С.212-216.

siyosat tartibidan bebaxradirlar.”¹⁸ Darhaqiqat, aynan shu ilmsizlik, siyosiy fanlarni bilmaslik oqibatida Buxoro Sho’ro davlati tobelligiga o’tdi, yillar davomida avom xalqning mehnati asosida yig`ilgan boyliklar va mamlakat, o`zgalar ixtiyoriga o’tib ketdi.

Mirzo Salimbek mavjud eski tuzum vakili bo`lib, amaldor bo`lsada, XX asr boshida Buxoro amirligi inqiroz holatida ekanini yaxshi tushungan. U amir Olimxon to`g`risida doim ”hazrati oliylari”, “iymon kurashchisi” deb ta`riflasa ham, amir to`g`risida o`zining tanqidiy fikrlarini yozib qoldirgan. Uning aytishicha, amir Olimxon davrida o`sha – o`sha ma`muriy boshqaruv apparati, fuqarolar ustidan amirning cheklanmagan hokimiyati, Buxoro jamiyatni hukmon doiralarining tekino`rlarcha turmush tarzi, demakki, oddiy xalqning og`ir hayoti saqlanib qoldi. Biroq, Olimxon ajdodlaridan farqli ravishda, irodasi sust, uning hatti-harakatlari ko`p jihatdan atrofidagi mansabdorlarga, kim undan yuqori kelsa, o`shalarga bog`liq bo`lgan.¹⁹

Fayzulla Xo`jayev o`zining asarida Buxorodagi mavjud ahvol to`g`risida ma`lumot berarkan, uning quyidagi fikrlari diqqatga sazovor: “O`sha vaqtning o`ziga kelib, Buxoroning o`zi ham tanib bo`lmaydigan bo`lib qoldi: Buxoroda xo`jalik va siyosiy tanglik har qachongidan ko`ra ko`proq ayon bo`lib qoldi, chunki amirning siyosati, amir amaldorlarining talonchiligi, soliq va o`lponlarning ko`payishi toqat qilib bo`lmaydigan darajaga yetdi. Mehnatkashlar mullalarning tashviqoti butunlay yolg`on va ularning o`zlarini g`irt aldamchi ekanligini tushuna boshladilar”.²⁰

Amirlikda amaldor va askarlarga muqim maosh tayinlanmagan, ular o`zlarini manfaatlari uchun avom xalqni talardi. Poraxo`rlik, manfaatparastlik avjiga chiqgan edi. Amaldorlarning o`zi xalqni oddiy bahonalar bilan talardi. Ko`pchilik shariat himoyachilari bo`lmish qozi va raislar “amir hazratlarining

¹⁸ Мухаммад Али Балжувоний. Тарихи нофейй. – Б.31.

¹⁹ Алимова Д., Рашидов У. XIX аср охири – XX аср бошларида Бухородаги сиёсий харакатлар ва курашлар. – Б. 12-13.

²⁰ Файзулла Хўжаев. Танланган асарлар/ I том. – Тошкент: Фан, 1976. –Б.205.

sog`lig`i va u kishining” nomidan odamlarni zindonga tashlar, kerak bo`lsa o`limga hukm qilar edi.

Buxorodagi ijtimoiy hayotning inqirozga uchragan, dehqon va hunarmandlarning ahvoli nihoyatda og`ir darajada edi. Davlat apparatining bosh-boshdoqlikka asoslangan siyosati amirlikni kapitalistik davlatlar darajasiga qo`shilishiga to`sinq bo`layotgan edi. Ikki yarim million aholisi bo`lgan, sanoati bo`lmas, hunarmandchilik ishlab chiqarishi rivojlanmagan, qishlok xo`jalik ishlab chiqarishning usullari mutlaqo qoloq bo`lgan Buxoro «mulkdorlar hokimiysi» deb atalgan mana shu talovchilar to`dasining hammasini, ularning qarindosh – urug`larini va yor-u-birodarlarini boqishi, 25—30 ming kishilik armiyani saqlab turishi, boylar tomonidan yirtqichlarcha ekspluatatsiya qilinishi, son-sanoqsiz mullalarni to`ydirib turishi va shunday sharoitda, 1860 yildagi rus-buxoro urushidan keyin o`tgan 50—60 yilcha vaqt ichida amirga shu qadar katta kapital to`plab berishi lozim bo`ldi. Shuning uchun ham mamlakat mana shunday tamomila xonavayron bo`lgan va qashshoqlanib qolgan holda Sovet hokimiysi qo`liga o`tdi. XX asrda jahonning boshqa biror qismida bunchalik xonavayrolik va qashshoqlik bo`lishi mumkin emas edi.²¹

Amirlikda diniy fanlar rivojlangan, lekin dunyoviy fanlar ancha orqada qolayotgan edi. O`qitish tizimi o`rta asrlar tizimi asosida olib borilar, bu zamонавија kapitalistik dunyo uchun to`g`ri kelmas edi. Madrasalar uchun juda katta vaqflar ajratilgan, lekin bu mablag`lar mudarris yo madrasada tahlil olayotgan mullabachchalarga emas, balki boylar, sudxo`rlar, amaldorlar qorni uchun ketardi. Madrasalarda o`qitish tizimi asosan quruq yodlash, sxolastika va mutaassib jaholatparastlikka asoslangan edi. Mavjud ijtimoiy inqirozni chuqur his etgan ziyoli insonlar – jadidlar bu tuzumni o`zgartirib, islohotlar o`tkazish uchun kurash olib bordilar. Jadidlar mavjud tuzum sharoitida davlatni isloh qilishning birdan-bir yo`li bu dunyoviy fanlarni yoshlar ongiga singdirish, yangicha ta`lim tizimini joriy etish deb bilganlar. Amir va mutaassib mullalarning qattiq

²¹ Файзулла Хўжаев. Танланган асарлар/ I том. —Б.205-207.

qarshiligiga uchragan hur fikrli jadidlar, amir tuzumini ag`darib, yangicha, davlat qurmoqchi bo`lganlar. Ular hech qachon yagona musulmon davlatini qurish yoki biron –bir musulmon davlatiga qo`shilmoqchi ham bo`lmaganlar. Ular o`z maqsadlarini o`zlarining fikrlari, dunyoqarashlariga asoslanib, ijtimoiy, diniy, odob-axloq normalari va prinsplariga tayangan holda amalga oshirmoqchi bo`lishgan.²² Bu ma`rifatparvarlarga Muhiddin Mansurov, Fayzulla Xo`jayev, Abdurauf Fitrat, Sadriddin Ayniy, Sharifjon Maxdum, Muso Saidjonovlarni aytish mumkin.

“Tarixi nofeiy ” asarida Buxorodagi mavjud boshqaruva va ta`lim tizimi to`g`risida ma`lumot berilgan bo`lib, unda “Buxoro xalqi aslida ozodalik, andishalik, himoyasizlik bilan tanilgan va mashhur bo`lgan. Unda Buxoro nega xoru-zor bo`ldi? Ilmsizlikdan, ya`ni Buxoroda siyosat ilmiga umuman yo'l bermaganliklaridan.”²³

Bir vaqtlar (bundan bir necha yilcha muqaddam) — maktablar ochish, «ilm-fanni» rivojlantirish, obodonchilik maqsadlari uchun, kambag`allarni boqish uchun tayinlab qo`ylgan vaqflarning juda ko`p mablag`lari allaqachon hukumat qo`liga o`tib ketgan va qisman katta-katta ruhoniylarning shaxsan foydalanishi uchun berilgan edi.²⁴ O`zining ko`p hayotini madrasada ta`lim olish bilan o`tkazgan Sadriddin Ayniy, ular to`g`risida shunday fikr bildiradi: ”Hozirgacha o`zining hashamati bilan lol qoldirgan, uch – to`rt asr oldin qurilgan bu eski madrasalar, tashqi jihatdan ulug`vorligi, ziynati, yarqirab turishi bilan, ichki jihatdan qorong`uligi, bo`g`iq, sassiq, o`ta torligi bilan feodal tuzumni aniq ko`rsatib beradi. O`rta asr feodalizmining ikkiyuzlamachiligi va qo`polligi aks etgan bu binolarni Rossiyada anchadan beri kitoblar va muzeylar orqali o`rganishmoqda. Men o`zim hayotimning yarmini shu yerda o`tkazib, azob va jafo chekkanman.”²⁵

Fitrat ham amirlikdagi o`qitish tizimi to`g`risida fikrlarini bildirarkan, Buxoroning asrlar davomida mashhur bo`lganini, hozirga kelib, ilmsizlik va

²² Алимова Д.История как история, история как наука.– С.178.

²³ Мухаммад Али Балжуоний.Тарихи нофейй. – Б.31.

²⁴ Файзулла Хўжаев. Танланган асарлар/ І том. – Б.227.

²⁵ Садриддин Айний. Бухара (Воспоминания). Ч II. – С.4.

jaholatparastlik botqog`iga botib qolganini alam bilan tilga olgan. “Butun olamga 400 ming olimni hadya etgan Buxoroi sharif shunchalik kuchga ega edi. Hozir esa afsus! Buyuk badbaxtlik bilan iqror bo`lamanki, hozir bu madaniyat quyoshining osmoni, bu insoniyat jannati, bu fozillar dunyosining ma`mur xonadoni, bu ma`rifat jahonining darsxonasi taraqqiyot uchun barcha vositalarga ega bo`lsa ham, jaholatning asl makoni, xorlik zanjirining asirligicha qolmoqda. Tirikchilik uchun barcha vositalar bo`lishiga qaramasdan, yoqasini ajal panjasiga topshirgan²⁶”.

Buxoroda xo`jalikni sog`lomlashadirish, sanoat va savdoni rivojlantirish sifati past edi. Buxoroning davlat arbobi Fayzulla Xo`jayev Buxorodagi ijtimoiy hayot to`g`risida teran qarashlarini bildirgan. Xalq maorifining ahvoli to`g`risida, shahar qurilishi, sog`liqni saqlash to`g`risida, shahar qurilishi muammolari haqida, xalqning dam olishi va hordiq chiqarishiga doir biror madaniy usullar to`g`risida gapirib o`tirmasak ham bo`ladi. Inqilobga qadar Buxoro teatr, kinoning nimaligini bilmagan. Ikki yarim million aholisi bo`lgan butun mamlakatda bitta xususiy kino bo`lgan.²⁷ Aholi ehtiyojlariga xizmat ko`rsatish ishlari naqadar yomon ahvolda bo`lganligini loaqlal shundan ham bilsa bo`ladiki, mamlakatning rasmiy ma'lumotlariga qaraganda, yiliga olib turgan 18 000 000 so`mlik daromadidan Buxoro shahrida ikki-uchta kasalxona qurilganligi va ko`chalarga tosh yotqizlganligi hisobga olmasa, mana shu ehtiyojlarga bir tiyin ham sarflangan emas.²⁸

Mamlakatning ehtiyojlarini butunlay nazar-e`tiborga olmaslik, xalq manfaatlari sira ahamiyat bermaslikdan iborat bo`lgan bu holat Buxoro shahrining o`zida va uning atrofida aholi sistematik ravishda qirilib borayotganligiga amir va uning hukumati qay nazarda qaraganligini yaqqol ko`rsatib turibdi. Buxoroda keng tarqalgan, butun O`rta Osiyoga va Rossiyaga ma'lum bo`lgan bezgak kasali yozda, qishloq-xo`jalik ishlarining dolzarb paytida juda ko`p kishilarni darmonsizlantirib yiqitib qo`yan. Bu yuqumli kasallik sababli

²⁶Абдурауф Фитрат. Рассказы индийского путешественника. Перевод с персидского А.Н. Кондратьева. Тошкент, 2007.-С.-29.

²⁷Файзулла Хўжаев. Танланган асарлар/ I том.-Б.227.

²⁸O'sha joyda.

anchagina odamlar qurbon bo`lib, Fayzulla Xo`jayev yozganidek, “odamlar bamisoli pashshadek o`laverdi, shunga qaramay, Buxoroda faqat bitta podsho vrachi, ikkita xususiy vrach, bir nechta feldsher, bir-ikkita dorixona bor edi. Xalq boshiga tushgan bu ofat bilan keskin kurash olib borish uchun , hech qachon, hech qanday chora ko`rilgan emas. Bezugakning tarqalishiga yo`l ochib berayotgan asosiy sabablarni yo`qotish – tuproqning zax bosib ketayotganligi bilan kurashish tadbirlariga kelsak, bu to`g`rida hech kim va hech qachon o`ylagan emas.²⁹

Buxorodagi sug`orish tizimining to`g`ri yo`lga qo`yilmaganini Buxoroning oxirgi qozikalonlaridan biri Sharifjon Maxdum(Sadr Ziyo) shunday degan: “Buxoroga suv Karmanadan kelardi va 22 ta tarmoqga bo`lingan edi. Har bir tarmoq bitta tumanni tashkil etgan ming tanob yerni sug`orish uchun mo`ljallangan edi. Buxoroda suvni to`g`ri taqsimlash ishini hech kim, hattoki maxsus amaldorlar ham bilishmagan”.³⁰

Buxoro tumanlarida suv kam bo`lib, ekinlar qovjirab qolayotganda aholi qurt bosgan hovuz suvini ichishga majbur edi, ayni paytda, butun-butun tumanlar botqoqlikqa aylanib, u yerlarda bezgak tarqatuvchi chivinlar paydo bo`lar va yildan-yilga ko`payar edi. Bu xalq- xo`jaligiga ham katta zarar yetkazar edi: ekin maydonlarini qisqartirib yuborar, yerning sifatini yomonlashtirar edi.³¹

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, XX asr boshida Buxoroda ijtimoiy hayot rivojlanmagan, qoloq ahvolda edi. Amir islohotlarini amalga oshirmoqchi bo`lganda, mutaassib amaldorlarning qarshiligiga uchragan. Shuning uchun ham Buxoroda ijtimoiy hayot zamon talablari darajasiga javob bermagan. Lekin shuni ham aytib o`tish kerakki aynan amir Olimxon davrida Buxoroda gazetalar bosishga, soliqlarni kamaytirishga, saroydagi tortiq va peshkashlarni kamaytirishga harakat qilingan. Lekin bu islohotlar, yuqorida aytib o`tganimizdek diniy ulamo va mutaassib amaldorlarning qarshiligiga uchragan. “Tarixi nofeiy ” asarida mavjud ijtimoiy hayot tasvirlashda oddiy xalqning ahvoli to`g`risida ma`lumot berilmagan.

²⁹ Файзулла Хўжаев. Танланган асарлар/ I том, – Б.228.

³⁰ Епифанова Л.М.Рукописные источники по истории Средней Азии периода присоединения к России. – С.56.

³¹Файзулла Хўжаев. Танланган асарлар/ I том –Б.228.

Lekin amir va amaldorlar, hamda o`qitish tizimi to`g`risida ma`lumotlarni keltirib o`tgan.

Umuman olganda Buxoroda davlat boshqaruv apparati markazlashmagan, hokimiyat amalda qo`shbegi, qozikalon, raisi kalon va boshqa amaldorlar qo`lida edi. Oddiy xalqning turmush-tarzi juda past, hamma qiyinchiliklar ularning yelkasida edi. Shaharda kanalizatsiya, toza ichimlik suvi, sog`likni-saqlash tizimi umuman talabga javob bermas edi. Shaharsozlik qurilishlari o`rta asr texnologiyasiga asoslangan, madrasa va binolarning hujralari tor, havo almashish sistemasi yo`q bo`lib, rejalashtirilmay qurilgan.

Ilm-fan o`rta asr usullariga asoslangan bo`lib, dunyoviy fanlar rivojlanmagan. Jaholatparastlik va quruq sxolastikaga asoslangan o`qitish tizimi zamonaviy talablarga javob bermas edi. Qishloq-xo`jaligida sug`orish tizimi yaxshi yo`lga qo`yilmagan, yerlearning meliorativ holati past bo`lgan. Shunday bo`lishiga qaramay amaldorlar hosil yig`imi paytida yerni ko`rib, “bu yerdan shuncha hosil chiqadi, falon qismini davlatga topshirasan” deb dehqonlarni ezishgan.

I.2.“Tarixi nofeiy ” asarida Buxoroda sho`rolar hokimiyatining o`rnatalishi masalalarining yoritilishi.

XX asr boshida Buxoro amirligida siyosiy ahvol murakkab edi. Bunga birinchi sabab amirlikdagi ijtimoiy inqiroz bo`lsa, ikkinchidan Rossiyadagi dastlab fevral, so`ngra oktabr inqiloblari edi. XX asr boshida Buxoro amirligi siyosiy jihatdan Chor Rossiyasining protektarati edi. Barcha tashqi aloqalar Chor ma`murlari ruxsati bilan amalga oshirilardi. Kelishuvga ko`ra askarlar va harbiy quollar Buxoro tarafidan qisqartirilib, uni qo`riqlash uchun harbiy asbob-uskunalar va askarlarni rus davlati o`z zimmasiga olgan edi. Buxoroda esa mamlakatni himoya qilish uchun o`n ikki ming askar bo`lishi kelishilgandi.³²

³² Амир Сайд Олимхон. Бухоро халқининг ҳасрати тарихи.А.Ирисова.-Тошкент: Фан, 1991. – Б .4.

Mamlakat hukmdori amir bo`lib, barcha hokimiyat uning qo`lida edi. Lekin XX asr boshiga kelib qo`shtbegi va qozikalonlarning mavqeい yanada oshdi. Buxoroda turli millat vakillari – o`zbeklar, tojiklar, turkmanlar, eronliklar, arablar, yahudiyalar, qozoqlar istiqomat qilishardi. Qo`shtbegining qaysi millatdan bo`lishi shu millat vakillarining hokimiyatda yuqori lavozimlarni egallashiga yordam berardi. Ko`plab tarixchilar 1910 yil yanvar oyida bo`lgan shia va sunniy din vakillari o`rtasida qonli to`qnashuvlar bo`lib o`tganiga asosiy sababni amirlik qo`shtbegisi bo`lgan Ostonaqul qo`shtbegi bilan izohlashadi. Ostonaqul qo`shtbegi amirlikdagi ko`plab yuqori lavozimlarni eronliklarga bergen. Natijada sunniy din mazhabi kishilari g`azablanib, ikki o`rtada to`qnashuvlar kelib chiqgan. Bu voqealar “Tarixi nofeiy” asarida ham bayon qilingan. Unda: “O`sha asrda arki oliv saroyining qo`shtbegisi Ostonaqulibek edi. U eroniylardan edi. Arzimagan bahona bilan janjal katta jangga aylangan edi. Poytaxt markazida bu nizo bir hafta davom etdi. Mir Do`stim hovuzi oldidan Qorako`l darvozasigacha bo`lgan joy harb va urush maydoniga aylanib ketdi”.³³

Mazkur qonli to`qnashuvlarda Buxoroning bir qancha aholisi halok bo`lgan. To`qnashuvlar natijasida o`lganlarning soni to`g`risida turli xil ma`lumotlar uchraydi. Arxiv manbalarining ma`lumotiga ko`ra 10- yanvarning o`zida 260 ta sunniy va 25-50 nafar shia mazhabiga sig`inuvchi Buxorolik halok bo`lishgan. 9-12 yanvarda bo`lgan qonli to`qnashuvda jami 1000 kishidan ortiq aholi halok bo`lgan.³⁴

“Tarixi nofeiy” asarida esa to`qnashuvlarning birinchi kechasi sunniylardan Hazrat Imlo masjidida 14 kishi, umuman olganda 67 kishi halok bo`lgani, eroniylardan esa 300 kishi o`lgani bayon qilingan. Shu vaqtida valiahd(to`ra) bo`lgan amir Olimxon bu voqealarni taftish qilib, otasi amir Abdulahadxon buyrug`i bilan Ostonaqul qo`shtbegini Xatirchiga yuborib, o`rniga mirzo Nasrulloni qo`shtbegi mansabiga qo`yadi. Bu voqealar amirlikdagi ijtimoiy-siyosiy holatning barqaror emasligini ko`rsatib beradi.

³³ Мухаммад Али Балжувоний. Тарихи нофейй. –Б.39.

³⁴ Тухтаметов Т.Г. Русско-Бухарские отношения в конце XIX – начале XX в. – С.91.

1910-yilda taxtga amir Olimxon o'tiradi. U ham otasi yo'lidan borib, Rossiya bilan yaxshi aloqalarni davom ettiradi. 1915-yilda Buxorodan 10 ta jahongir to'pi va 500 ta beshotar miltiq birinchi jahon urushida qatnashayotgan Rossiya uchun yordam tariqasida berilgan. "Tarixi nofeiy"da 1916-yilda ruslar mardikorlik uchun odam so'rashganda, Jizzax ahli odam bermagani, natijada Jizzax to'pga tutilib, yer bilan yakson qilingani, zo'ravonlik va noinsoflik avj olib, shaharda zulm va bedodlik bisyor haddan oshgani bayon qilingan.

Buxoroda amirligining Rossiya davlati bilan aloqalari 1917-yil fevral inqilobidan salbiy tomonga o'zgara boshladi. Rossiyada hokimiyat bolsheviklar qo'liga o'tgandan so'ng, ular yarim mustaqil bo'lgan Buxoro va Xiva xonliklarini to'liq o'z tobelligiga olmoqchi bo'ldi. Bunda ular "Yosh Buxoroliklar" kuchidan foydalanishdi.

Fevral inqilobidan so'ng Petrograddagi Muvaqqat hukumat Buxoro masalasida ikki xil fikrda edi. Tashqi ishlar vaziri P. N. Milyukov(kadetlar partiyasining yo'lboshchisi) amirlikda islohotlar o'tkazish tarafdoi bo'lsa, keyinchalik bosh vazir bo'lgan A. F. Kerenskiy esa Buxoroni Rossiya tarkibiga qo'shib olishni qattiq turib yoqlagan.³⁵

Buxorodagi amirlik hokimiyatining tugatilishiga "Yosh Buxoroliklar"ning o'rni bor. Ular amirlikdagi jaholatparastlik va huquqsizlikni, odamlarning qoloqligi turmush tarzini yaxshilash maqsadida dunyoviy - huquqiy davlat qurmoqchi bo'lganlar. "Tarixi nofeiy"da yozilishicha ularning soni 222 nafar bo'lgan. Ularning rahbarlari Muhiddin Sarrof(Muhiddin Mansurov), Fayzulla Xo'jayev, Olimbek ibn Jo'raboy po'st bo'lishgan. "Tarixi nofeiy" asarida jadidlarga nisbatan salbiy kayfiyatda bo'lingan. Bunga sabab muallifning Buxoroning eski tuzumi tarafdoi ekanligi bo'lishi mumkin. Bunga misol tariqasida "Tarixi nofeiy"da: "Shu notinch (g'alayonlar) zamonida Buxoroning bir nechta tojirlari va kattakonlari Rusiya Sho'rolari bilan Buxoro amiriga "biz islom o'lkalarini ozod etib, hurriyat qilurmiz, lekin bu ish xotirjamlik va tinchlik bilan amalga oshsa

³⁵ Ражабов К. Бухорога қизил армия босқини ва унга қарши кураш. –Б.14.

“yaxshi bo`lur edi” dedilaru, aslida o`zлari dushmanlik qilib qarshilik ko`rsatmoqchi edilar”- degan ma`lumotlarni keltirishimiz mumkin.³⁶ Yosh Buxoroliklar asosan yosh kadrlardan tuzilgan edi. “Yosh Buxoroliklar”ning va sho`ro hukumatining qistovi bilan amir Olimxon mamlakatda islohotlar o`tkazishga mo`ljallangan manifestni 1917 yil 7 aprelda e`lon qiladi. Amir farmoni rus elchixonasi vakillari, Samarqanddan tabrik uchun kelgan muftiy Mahmudxo`ja Behbudi, shuningdek, qozikalon Sharifjon Maxdum, ulamolar va savdogarlar hozirligida o`qib eshittirilgan. Fayzulla Xo`jayevning xotirlashicha, manifest e`lon qilingan kunning o`zida Yosh Buxoroliklar yig`ilish o`tkazib, manifestdan keyingi holatni muhokama qilishdi. Undan yig`ilish qatnashchilari xursand bo`lib, bu voqeа Buxoro xalqini asriy huquqsizlikdan ozod qilish uchun qo`yilgan dastlabki qadam deb baholaganlar. Mehnatkashlarga amir farmonining mazmunini tushuntirish uchun miting va yig`ilishlar o`tkazish to`grisidagi taklif barcha ishtirokchilar tomonidan ma`qullangan bo`lsada, maxsus inqilobiy namoyish o`tkazish g`oyasi birday qabul qilinmadi. A. Burhonov va uning tarafдорлари bo`lmish eski jadidlar bu taklifga qarshi chiqdilar. Ularning fikricha, namoyish hozirgi kunda qattiq g`azablangan mutaassiblarning yana ham jig`iga tegib, ularning amir atrofiga birlashuviga va hattoki qon to`kilishiga olib keladi. Namoyish bilan emas, balki mustahkamlash bilan shug`ullanish maqsadga muvofiqligi ta'kidlangan. Bu fikrni A. Burhonovdan tashqari, bir guruh Markaziy Qo`mita a`zolari, shuningdek S.Ayniyning o`zi ham qo`llab quvvatlagan.

Amir bilan to`qnashuvdan qochib bo`lmaydi, baribir Olimxon o`z dushmanlarini esdan chiqarib qo`ymaydi. Shuning uchun namoyish o`tkazib, mag`lubiyatga uchrasak ham o`z kuchlarimizning miqdorini bilish, omma orasida ochiq tashviqot yuritish, shiorlarimiz bilan xalqni tanishtirish va janjal tufayli safimizdagi ig`vogar va sotqinlarni aniqlash imkoniyatiga ega bo`lamiz, deb o`ylagan F. Xo`jayev boshchiligidagi “Yosh Buxoroliklar” jon-jahdi bilan namoyish o`tkazishni qo`llab quvvatlaganlar.³⁷

³⁶ Мухаммад Али Балжувоний. Тарихи нофейй.– Б.40.

³⁷ Файзулла Хўжаев. Таъланган асарлар/ I том.–Б.110-111.

Ertasi kuni(1917 y 8 aprel) namoyish vaqtida Buxoro mullalari va madrasada tahsil olayotgan mullavachchalar ham namoyish o`tkazib, ikki o`rtada to`qnashuv yuz beradi. Shundan so`ng jadidlar quvg`inga uchraydi. Ular asosan Yangi Buxoro(Kogon) va Toshkentga qochganlar.

Rossiyada 1917 yil oktabr inqilobidan so`ng, hokimiyat bolsheviklar qo`liga o`tgach, amirlik bilan aloqalar juda keskinlashadi. 1918 yil 1 martda Kolesov boshchiligidagi qizil askarlar Buxoroga hujum qilgan. Shu oyning 19-sida dushanba kuni(1918 y, 2 mart) eski Kogonda ham og`ir urushlar bo`lgan. O`sha kuni lashkarboshi va askariya boshlig`i Shams to`qsoba o`ldirildi. Buxoro askarining bayrog`i tushib ketdi. Shundan keyin tamomi askar orqaga chekindi. Muhoraba panjshanba³⁸ kuni jmod ul-avval oyining 22-sigacha(1928 y, 5 mart) 5 kun davom etdi. Buxoro askari temir yo`llarni buzib, telegraf simlarini kesib tashlab, Sho`ro davlatiga ko`p zarar yetkazdi. Sho`ro hukumati suh taklif etib, 21-jmod ul-avval oyida 27 nafardan iborat ishbilarmon kishilarni Buxoroga yubordi. Bu elchilar suh tuzish uchun emas, hujumga o`tib, davlat boshliqlarini asir qilmoqchi bo`ladilar. Ularning niyatini bilgach amir sarbozlari hamlaga o`tib, ularni o`ldirdilar.³⁹

Mazkur voqealarni o`z ko`zi bilan ko`rgan davlat amaldori va tarixchi Mirzo Salimbek “Tarixi Salimiy” asarida elchilar 22 kishidan iborat bo`lib, ularning boshlig`i Utkin bo`lganini ta`kidlaydi. Shu bilan birga yana 28 nafar bolsheviklar ikki-uchtadan guruhlarga bo`linib, shahar rastalari orasida arkga hujum qilish uchun kutib turadi, lekin ularni ham topib yo`q qilinadi. 22 nafar elchilarni qo`shbegi saroyiga olib kirib, u yerda ziyofat berishadi. Utkin amir bilan to`rt soat davomida suhbatlashgach, uni ham qo`shbegi saroyiga olib kelinadi. Utkin telefon orqali Kogonga xabar qilib, Kolesovga sog`-salomat yetib kelganini aytishini bildiradi. Amir ularni maqsadini bilib, ularni qo`lga olishni buyuradi. Elchilarga tashqarida odamlar g`alayon ko`tarishdi, sizlarni ko`rmasligi uchun yer to`laga kirib yashirininglar, kechasi chiqarib yuboramiz deb hiyla ishlatishadi. Ular

³⁸ “Panjshanba” bu haftaning payshanba kuni. Asarda qanday bo`lsa xuddi shunday keltirdik.

³⁹ Муҳаммад Али Балжувоний. Тарихи нофейй.—Б.51-52.

yerto`laga kirgach, qurollarni topshirishni aytishadi. Lekin Hoji Zikriya ularga qurollarni topshirmsliklarini aytadi. Natijada ikki o`rtada otishma vujudga keladi. Amir odamlari yerto`lani gilamlar bilan yopib, uni suv bilan to`ldirishadi. To`qqiz kundan so`ng yerto`lani ochishadi. Uch nafar bolshevikdan tashqari qolgani o`lgan edi. Bu uchchallasini ham o`dirishganini yozib qoldirgan.⁴⁰

Boshqa bir manbada esa: Mazkur elchilar soni 40 taligi va shundan 20 tasi arkga kirgani, qolgani ark oldida kutib turgani bayon qilingan. Shu bilan birga elchilar faqat sulh tuzish maqsadida kelgan va ularning hech qanday yomon maqsadi yo`q edi. Amir odamlari ularni arkdagi yerto`laga qamab, ustidan teshik ochib, suv bilan to`ldirgan. Yetti kundan so`ng amirlik ularni olib chqishganda, faqat yettitasi tirik qolgani, ularni ham o`ldirishgani to`g`risida ma`lumot berilgan.⁴¹

Buxoro qo`shinlari Buxoroga keladigan temir yo`l va telegraf simlarini uzib qo`yadilar. Natijada tashqi dunyodan uzilib qolgan ruslar sulh imzolashga majbur bo`ladilar. 1918 yil 25 martda Qiziltepada Turkiston XKS bilan Buxoro o`rtasida bitim tuzildi. To`qqiz banddan iborat bitimda Buxoro xalqi faqat jabr ko`rgangina emas, aksincha, o`z davlati hududidagi harbiy harakatlarda aybdor deb hisoblandi va tovon to`lashga majbur qilindi. Kolesov voqeasidan so`ng amirlikda 1500 kishi jadid deb qatl qilingan.⁴²

“Tarixi nofeiy ” asarining beshinchi va oltinchi boblarida Buxoro amirligining Sho`ro Rossiyasi bilan urushga tayyorlanishi, Buxoroning bosib olinishi va amir Olimxonning Afg`onistonga qochishi haqida ma`lumotlar berilgan. Asarda urush harakatlari kunma-kun yozilgani va urushda ishtirok etgan odamlarning yozib qoldirilishi katta ahamiyatga ega.

Kolesov hujumidan so`ng bolsheviklar bilan kelgusida urush harakatlari muqarrarligini bilgan Buxoro hukumati harbiy salohiyatini kuchaytirishga harakat qiladi. Amir inglizlar, tbilisiliklar, afg`onlar, xorazmliklar bilan ittifoq va do`stlik maqsadida muzokaralar olib borgan. Nizomiy askarlaridan bo`lmish arab

⁴⁰ Мирза Салимбек. Тарих-и Салими. –С.169-171.

⁴¹ Андреев М.С, Чехович О.Д. Арк кремль Бухары. –С.82-84.

⁴² Файзулла Хўжаев. Танланган асарлар/ I том. –Б.156.

jamoasidan ellik nafari Ashxobod cho`liga borib, ingliz davlatidan inglizcha pulemyot va miltiqlarni olib kelgan. To`raqulboy po`st" (qorako'l) qo`y terisi ortilgan tuya bilan Angliyaga yuborilgan. Buxoro va Angliya o`rtasida do`stlik o`rnatilishi haqida e`lon qilingan.

Rusiya urushlarida asir tushgan bir guruh avstriyalik askarlarga oylik tayinlanib, Imom (Abu) Hafsi kabir Buxoriy darvozasi oldida, qal'a ichida to`p va o`q ishlab chiqaradigan fabrikani ishga solganlar. Kofirobod guzarida ham o`q dori, to`p va miltiq sozlab yasashni yo`lga qo`yib, harbiy va davlat ishlarini rivojlantirdilar. Natijada, Buxoro askariyasida to`plarning soni 600ga⁴³ yetdi, yana qanchadan-qancha yevropacha snaryadlarni ishlab, tayyorladilar.⁴⁴

Do`stlik o`rnatish uchun Domullo Qutbiddin Sudurni To`raxo`ja naqib bilan Afg`onistoniga yuborganlar. Afg`oniston amiri vazirlari bilan o`zaro bir necha qarorlar qabul qilib, Buxoro davlatiga yordam tariqasida oltita fil va ikki yuz nafar fidoyi askarni yuborgan.⁴⁵

Afg`onistonning Buxoro amirligiga yuborgan yordami to`g`risida turli xil ma`lumotlar uchraydi. Amir Olimxonning ma`lumotiga ko`ra Afg`oniston amiri do`stlikni mustahkamlash yo`lida Fazl Ahmadxonni Buxoroga yuborgan. U ikki yuz nafar askar, bir guruh orkestr, yettita to`p, yettita filni yuborgan.⁴⁶

Eshon Burxonxon Xiyoboniyni Domullo Burxoniddin maxdum Ko`lobiy bilan Xorazmga yuborganlar. Ikkala davlat ittifoq tuzib, yakdil bo`lib, Rusiyaga birgalikda qarshilik ko`rsatishga qaror qilganlar.

Buxoro amirligi o`zini himoya qilish uchun tashqi aloqalarini kengaytirib, qurol-yarog`larini mustahkamlayotganini bilgan ruslar: "Buxoro amirligi zo`r berib bizga qarshi urushga tayyorlanayapti. Biz bu narsani shoshilinch harbiy tayyorgarliklar, qo`sish va otliqlarning safarbar etilishi va mullalarning bizga qarshi ochiq targ`ibotlarida ko`rishimiz mumkin." -kabi fikrlar bilan matbuotlarda

⁴³ Muallif bu yerda to`plarning sonini bo`rttirib ko`rsatgan.

⁴⁴ Мухаммад Али Балжувоний. Тарихи нофейй–Б.57.

⁴⁵ O`sha joyda. -Б.58.

⁴⁶ Амир Сайд Олимхон. Бухоро халқининг ҳасрати тарихи.–Б.6.

chiqishgan.⁴⁷ Bular hammasi kelajakda bo`ladigan Sho`ro qo`sishinlarining bosqinini, “o`zini va avom xalqni himoya qilish uchun qilingan urush”, - deb oqlash uchun qilingan targ`ibotlar edi. Go`yoki Sho`ro qoshinlari Rossiyaga Buxoroni qo`shib olishdi. Aslida bu xalqaro normalarni buzgan holda qilingan bosqinchilik urushi edi.

Bu vaqtga kelib amir armiyasida 16 ming sarboz bo`lib, safarbarlik e`lon qilinsa 27 ming sarboz to`planishi mumkin edi. Bu armiyada 55 ta eskirgan to`p va 12 ta pulemyot bo`lgan.⁴⁸

To`xtametov ma`lumotiga ko`ra amirlikda 8025 ta doimiy piyoda askarlar va 7260 ta otliq askarlar bo`lgan. Shu bilan birga 16 ta pulemyot va 23 ta to`p bo`lgan. Zahirada 23390 ta piyoda va otliq qo`sish ham bo`lgan.⁴⁹

Buxoro bosqini arafasida bolshevik qo`sishinlari Chorjo`y, Kogon, Kattaqo`rg`on va Samarqand guruhlaridan iborat yagona Samarqand – Buxoro frontiga bo`ysundirildi. Samarqand – Buxoro frontining shaxsiy tarkibi quyidagicha bo`lgan: 7 ming piyoda, 2,5 ming otliq askar, 5 ta og`ir to`p, 206 ta zambarak, 5 ta broneavtomobil va 11 ta aeroplan.⁵⁰

Boshqa manbalarda esa qizil askarlarning ixtiyorida 7 ming askar, 230 ta pulemyot, 46 ta to`p, 5 ta bronepoyezd, 12 ta samolyot va 10 ta broneavtomobil bo`lganligi qayd etilgan.⁵¹

Buxoro “inqilob”i puxta reja asosida tayyorlanadi. 29 avgustda Beshim Sardor boshchiligidagi yollangan turkman otliqlarining yordami bilan Chorjo`yda qo`zg`olon ko`tarilib, u egallanadi. Shundan so`ng qizil askarlar qo`zg`olon ko`targan aholiga “yordam berish” maqsadida Buxoroga hujum qilishni buyurishgan. “Tarixi nofeiy ” asarida Buxoroning bosib olinish voqealari batafsil yoritilgan. Hijriy 1338 yil zulhijja oyining 18-si (1920 yil yil 29 avgust) yakshanba

⁴⁷ История Бухарской Народной Советской Республики. Сборник документов.-Т.:Фан,1976.-С.27.

⁴⁸ Иноятов Х.Ш. Народы Средней Азии в борьбе против интервентов и внутренней контрреволюции. - М.1984 г.-С.345; Косимов Ф, Рашидов У.Тарих ва тақдир://Фан ва турмуш.1995.–№41.-Б.5.

⁴⁹ Тухтаметов Т.Г. Русско-Бухарские отношения в конце XIX – начале XX в. –С.157.

⁵⁰ Алимова Д, Рашидов У. XIX аср охири – XX аср бошларида Бухородаги сиёсий харакатлар ва курашлар. – Б.36.

⁵¹ Ишанов А.И. Бухарская Народная Советская Республика. -Т.:“Узбекистон”.1969.-С.190, Ремпель Л.И. Далёкое и близкое. -Страницы жизни, быта, -Строительного дела, ремесла и искусства старинной Бухары.- С.9.

kuni Buxoroni bosib olish boshlangan. Ruslar taktik va harbiy texnika ustidan ustun bo`lgan. Ularning 3 ta aeroplani qorovullik qilib, Buxoro shahri ustida uchib yurgan. Yakshanba kechasi Kogonda urishayotgan amirlik sarbozlari rus askarlariga asir tushadilar. Yordamga kelgan 200 nafar afg`on askarlari Qarshi darvozasiga yuboriladi. Yakshanba kuni ular juda ham qattiq urushganlar. Ikki-uchtalari halok bo`lgan. Ikkita to`p yorilgan. Seshanba 31 avgustda og`ir jang davom etib, shu kuni Qarshi darvozasi to`p zarbidan buzilgan. Uning janubidagi 100 gazga yaqin qal'a devori qulab tushgan. Ana shu darvoza yo`lidagi mahallaning yarmi yonib xarob bo`lgan. Unga yondosh ko`p guzarlar ham yonib ketib, ancha odam halok bo`lganini Muhammad Ali Baljuvoniy alam bilan eslaydi. O`lganlar soni taxminan 2 ming nafardan oshib ketgan. Buxoro askarlari va sarbozlari vazoratpanoh(qo`shbegi) buyrug`i bilan 9 ta oq bayroq ko`tarib, Kogon tomon boradilar. Yo`lda bu askarlar ham o`ldirilgan.⁵²

Chorshanba birinchi sentabr kuni ham urush nihoyatda avj olgan. Qizil askarlar shaharga kirib ko`p joylarni vayron qilganlar. Chorshanba kuni Devonbegi hovuzi oldigacha jang bo`lgan. Abdusattorbek to`pchiboshi 5 ming askar bilan Devonbegi hovuzi oldida jang qilib turgan vaqtida, askari qochishga yuzlangan va shahar darvozalaridan chiqib keta boshlagan. Qolganlari esa Devonbegi hovuziga to`plarni tashlab qochganlar. To`pchiboshi shu yerda halok bo`lgan. Mozori Samarqand darvozasida turgan afg`onlar jamoasi ish qo`ldan ketganligini fahmlab, qurol-yarog`larini olib piyoda Sitorayi Mohi Xossaga, amir huzuriga kelganlar. Odamlar jonini saqlash uchun ahli ayolini olib shahardan chiqib tumanlarga qarab qochgan. Birinchi sentabr kunini “Tarixi nofeiy” muallifi kichik qiyomat “qiyomati asg`ar” deb atagan. Chunki, hatto, devonalar ham shahardan ikki farsax⁵³ masofagacha qochib ketgan edilar.⁵⁴

Vaziyatdan chiqish yo`li yo`qligini sezgan amir Olimxon 5-6 foytun bilan avval G`ijduvonga keladi. Uning orqasidan 10 mingdan ortiq Buxoro aholisi

⁵²Мухаммад Али Балжувоний.Тарихи нофейй.—Б.63.

⁵³ 6-7 kmga teng masofa.

⁵⁴ Osha joyda, – B.64.

keladi.⁵⁵ U yerdan Sharqiy Buxoro orqali Afg'onistonga o'tadi. 2 sentabr payshanba kuni ruslar Buxoro va uning atroflarini qo'lga kiritadilar. Bosqin natijasida 34 ta guzar, uch mingdan ortiq do'kon, 20 tachaga yaqin saroy, 29 ta masjid yonib xarob bo'lgan. Minorai Kalonning bir nech qismlari qulab tushgan. Olimxon madrasasining peshtoqi ham to'p zarbidan buzilib, tashqi darvozasi, darsxona eshiklari yonib ketgan. Miri Arab madrasasining peshtoqi qulab tushgan. Hazrati imom darvozasidan Guzari Nazarchagacha, Kofirobod, O'g'lon darvozasi, masjidi Kalon, Zindondan To'qimdo'zi hammomigacha batamom yonib ketgan. Buxoroning janubidan Mehtari Orif guzarininig uchdan biri, Qarshi darvozasi oldidagi guzarning yarmi, Nahor darvozasining yarim guzari yonib, kultepaga aylangan. Qarshi darvozasi ham yonib ketgan. Ko'plab Buxoroliklarning mol-mulkleri yonib ketgan. Ko'p aholi boshqa viloyatlarga ketib qolgan. Shaharda 3 mingga yaqin hovli yonib, kul bo'lgan. Yosh Buxoroliklar shaharga kirib bu ahvolni ko'rib, ancha afsuslanganlar. Buxoro shahri qariyb 20 kun yongan. Yong'inni o'chirish uchun moshinalar olib kelingan. Arkdag qariyb 300 ta imorat to'p o'qi va bombalar zarbidan yonib, ancha qimmatbaho mollar yonib ketgan. 1916 yilda Buxoro shahrida 80 ming aholi bo'lgan bo'lsa, Rus bosqinidan so'ng 60 ming aholi qolgan.⁵⁶

Chor askarlari Buxoro amiri va boylarning xazinalarini, oddiy aholining xonadonlarini talaganlar. Buxoroda qariyb 15-sentabrgacha davom etgan talonchiliklarni ko'rgan Turkkomissiya vakili G. Safarov bu voqealarni quyidagicha ta'riflagan. "Buxoroga kelgan rus qo'shinlari va qizil gvardiyachilar, eng avvalo, talonchilik va zo'ravonlik bilan shug'ullandilar. Ular hammani, hamma narsani taladilar. Umuman, ular Buxoroni talash uchun kelgan edilar."⁵⁷ Buxorodan olingan boyliklar ikki eshelonda Moskvaga yuborilgan.

Buxoro bosib olingandan so'ng Buxoro inqilobiy qo'mitasi va Xalq Nozirlar Soveti tuzildi. Buxoro inqilobiy qo'mitasi raisi A. Muhiddinov, Xalq Nozirlar

⁵⁵ Амир Сайд Олимхон. Бухоро халқининг ҳасрати тарихи. – Б.9.

⁵⁶ Воҳидов Ш. "Тарихи нофейй". Бухоро амирлиги тарихига оид мухим манба./Ўзбекистонда ижтимоий фанлар. 1997. № 9-11. –Б.48-54.

⁵⁷ Алимова Д, Рашидов У. XIX аср охири – XX аср бошларида Бухородаги сиёсий харакатлар ва курашлар. – Б.42.

Sovetining raisi F. Xo'jayev bo'lgan. Yangi hukumat Buxoroda bir qator o'zgarishlarni amalga oshirdi. 50 ga yaqin yangi maktablar tashkil etilgan. "Tarixi nofeiy"da ba'zi maktablar to'g'risida fikr bildirilgan: "Arki oliyda bir siyosiy harbiy maktab, Devonbegi hovuzi oldidagi Olimxon imorati passajida yana bitta siyosiy maktab, Dasturxonchi hovuzi yonidagi Xoldorbekjon hovlisida hisob va qarz maktabi, shuningdek, "Turon to'dasi", Avliyoqulbek devonbegi hovlisida sanoat maktabi, Dasturxonchi hovuzining yonidagi To'rai Chorjo'yi Mir Muhammad Siddiq Hashmat hovlisida musiqiy maktab ochib, Fitrat afandini mudir etdilar. Qozi kalon hovuzi oldida "Shams ul-orifin" maktabini ochdilar. Xiyobon guzarida "Dor ul-muallimini forsiy" maktabini ochdilar. Bundan tashqarida yana telefon (aloqa) va aeroplan maktablari ham tayin bo'ldi. Ilmi hisob, jug'rofiya, siyosiy, handasa, sarf-u nahv va boshqa ilmlar forsiy, turkiy va rus tilida ta'lim berilardi."⁵⁸

Yangi hukumat Xo'rjin madrasasini, Pushaymon madrasasini, O'tkir qo'shbegi madrasasini va Fathali qo'shbegi madrasasini Buxoro inqilobi davrida qamoqxonaga, Hazrati Imom darvozasi ichidagi Mirzoi Urganjiy hovlisini "ikkinchi ariston" deb zindonga aylantirganlar. Inqilobning birinchi yilida Registon maydonini kengaytirib, unga "istiqlol maydoni" deb nom qo'yganlar.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, "Tarixi nofeiy" asarida XX asr boshlaridagi Buxoro amirligining siyosiy ahvoli, "Yosh Buxoroliklar" bilan amirlik o'rtasidagi munosabat, islohotlarni o'tkazishga urinishlar va uning qonga belanishi, Sovetlar hukumati va qizil armiyasining amirlikni qurol va zo'ravonlik yo'li bilan bosib olib, talagani bayon etilgan. Shu bilan birga 1920 yil urush harakatlari va unday keyingi o'zgarishlar to'liq bayon etilgan. Undagi ma'lumotlarning ko'pchiliginiboshqa asrlarda uchratmaymiz.

⁵⁸ Муҳаммад Али Балжувоний. Тарихи нофейй. –Б. 76-78.

II.BOB. BUXORO AMIRLIGINING MA`MURIY TUZILISHI.

II.1. Amir va uning vakolatlari.

Buxoro mamlakati Amudaryoning sharqiy sohillaridan, ya'ni Rossiya Pomiridan to Xivaning keng dashtlarigacha cho'zilib boradi. Rossiya bilan Buxoro o'rtaida bo'lgan urushdan oldin 1868 yili va bolsheviklar hukumati tasarrufida(1920) bo'lgan chog'da Buxoro shimol tarafdan Qizilqum sahrosi bilan, G'arb tarafdan Sirdaryo bilan hamda Qo'qon xonligi bilan, janubdan esa Afg'oniston, Sharqdan turkman o'lkasi ham Xiva dashti bilan chegaradosh bo'lgan.

Buxoro aholisi uch yarim million nafardan iborat. Uning maydoni 225 000 km² , ya'ni taxminan Italiya maydoni bilan teng bo'lgan. Amirlik aholisining asosiy qismi o'zbek, tojik, turkman, qirg'iz, qozoq, yahudiy va arablardan iborat. Buxoroning g'arbiy qismi, xususan, Amudaryo sohillaridan tashqari joylariga ekin ekish va dehqonchilik qilish mumkin bo`lmagan. Aksincha daryoga yaqin joylar ancha serhosil yerlar hisoblangan. Qashqadaryo, Surxondaryo, Zarafshon, Kofirnahang va G'iyshlar tevaragida dehqonchilik qilishgan.⁵⁹

Buxoro mamlakati yigirma sakkiz beklikga bo'lingan. Shu qarorga muvofiq Nurota, Qorako'l, Qabqoli, Chahorjo'y, Qarshi, Burdoliq, Kalif, Shahrisabz, Yakkabog', Kitob, G'uzor, Qarotegin, Boysun, Hisor, Dehnav, Qo'rg'on (tепа), Baljuvon, Ko'lob, Qabodiyon, Darvoz, Ro'shon bekliklari va mirliklariga bo'linib, bu vazifalar qadim-qadim ayyomlardan buyon irsiy, ya'ni meros bo'lib qolgan. Biroq Amir Sayid Olimxon zamoniga kelib saylash usuliga o'tilgan.⁶⁰

“Majma` ul -arqom” ma'lumotiga qaraganda amirlik yana quyidagi ma'muriy-hududiy bo'laklarga bo'lingan. Chunki bu tartibda xiroj, zakot va soliqlarni olish qulay bo'lgan. 100 tanobdan iborat sug'oriladigan yer “tuman”, 50 ming tanobdan iborati “hazora” (minglik), 25 ming tanob sug'oriladigan yer “nimhazora”, 10-15 ming tanob yer biror bir anhor (ariq)ning “obxo'r”i

⁵⁹ Амир Сайд Олимхон. Бухоро халқининг ҳасрати тарихи.–Б.32.

⁶⁰ O'sha joyda, – В .34.

(sug`oriladigan), 400 tanobga ega bo`lgan mulk “qariya” va 300 tanobli yerni “mazra`a” (ekinzor) deb atalgan.⁶¹

Buxoroning tabiiy boyliklari: oltin, kumush, qo□rg□oshin, mis, temirlar Buxoroda ko□p miqdorda topiladi. Xususan Sharqiy qismlarda ma'danlar borki, ular to shu mahalgacha ishlab chiqilmagan. Tabiiy boyliklar ichida neft, ko□mir, gugurt, nashatirlar bor. Savdo-sotiq ishida teri, yung, shoyi gilamlar — mamlakatning tashqariga chiqaradigan asosiy mollarini tashkil etgan⁶².

Buxoroda mang`itlar sulolası 1756- yilda kelgan va davlatda 1920-yilgacha hukmronlik qilgan. Mang`it so`zining ma'nosi "o`ldirmoq" degan ma`noni bildiradi. Muhammad Rahimxon Qarshi tomonda yashagan "Oy eli to`q mang`it" urug`ining vakili bo`lib, ekin yerlari, mulk, chorva mollari va katta sarmoyaga hamda o`z qabilasi va qo`shni qabilalar o`rtasida e'tibor va nufuzga ega bo`lgan. O`zining kelib chiqish rishtalari jihatidan ba'zi mang`itlar ashtarxoniyalar, kenagasarlar, temuriylar va chingiziylarga bog`lanadi. Muhammad Rahimxon o`zbek-turk qabilasidan bo`lib, Chingiziylarga aslo bog`lanmagan.⁶³

Said Mansur Olimiy mang`it amirlarining shajarasini quyidagicha bergen: “Hazrat Sayidino va mavlono Muhammad sallallohi alayhi vasallam hazrat siyodat onsiyot Fotima-Zuhro, hazrat Sayid Imom Ali bin al-shahid Husayn roziolloh-hazrat Sayid Imom Muhammad Boqir bin Sayid imom Ali, hazrat Sayid Imom Ja'far Sodiq bin Sayid Imom Muhammad Boqir, hazrat Sayid imom Muso Kozim bin Sayid imom Ja'far Sodiq, hazrat imom Ali Muso Rizo bin Sayid imom Muso Kozim, hazrat Sayid imom Muhammad Naqi bin Sayid Muso Rizo, Sayid imom Ali Naqi bin Sayid imom Muhammad Taqi, Sayid imom Husayn Askari bin Sayid imom Ali Taqi, Sayid Amir Abu Muhammad bin Sayid imom Husayn Askari, Sayid Amir Jaloliddin Muhammad bin Sayid Amir Abu Muhammad, Sayid Amir Nuriddin bin Sayid Jaloliddin Muhammad, Sayid Amir Hidoyatullo bin Sayid Nuriddiya Muhammad, Sayid Amir Muhammad Mu'yin bin Sayid Hidoyatullo,

⁶¹ Мирза Бадиъ Диван. Мажмаъ ул- аркам. Введение, перевод, примечание и приложение А.Б.Вильдановой.— М.:Наука.1981. – С.18.

⁶² Амир Сайд Олимхон. Бухоро халкининг ҳасрати тарихи. – Б.35.

⁶³Сайд Мансур Олимий. Бухоро-Туркистон бешиги.–Б.40.

Sayid Amir Abu Solih bin Sayid Muhammad Mu'yin, Sayid Amir Muhammad Taqi bin Sayid Amir Abu Solih, Sayid Amir Ali Rizo bin Sayid Amir Muhammad Taqi, Sayid Amir Muhsin bin Sayid Ali Rizo, Sayid Amir Ja'far bin Sayid Amir Muhsin, Sayid Amir Muhammad Amin bin Sayid Ja'far, Sayid Mirzo Abu Tolib Badi' Zamon bin Sayid Muhammad Amin, Sayid Shahr-bonu bent Badi' Zamon Sayid Amir Nadr Muhammad bin Shahr-bonu, Sayid Amir Subhonqulixon bin Sayid Nadr Muhammadxon, Sayid Amir Ubaydulloxon bin Sayid Subhonqulixon, Sayid Amir Abulfayzxon bin Sayid Amir Ubaydulloxon⁶⁴, Shamsiya - bonu bent Sayid Abulfayzxon, Sayid Amir Haydar bent Shamsiya - bonu⁶⁵, Sayid Amir Nasrulloxon bin Sayid amir Haydarxon, Sayid Amir Muzaffarxon bin Sayid Amir Nasrulloxon, Sayid Amir Abdulahadxon bin Sayid Muzaffarxon, Sayid Olimxon bin Sayid Abdulahadxon”⁶⁶.

Buxoroning so`nggi amiri Olimxon hisoblangan. U davlatda bir qator o`zgartirishlar qilgan. Masalan, soliqlarni kamaytirgan, din peshvolari-mullalarning, amaldorlarning maoshini ko`paytirgan, tortiq va hadyalarni man etib, gazeta chiqarishga ruxsat bergan. Amir Sayid Olimxon 1881 yilda Karmanada tug□ilgan. So□ngra boshlang□ich tahsilni tugatgach, 1893-yilda o□n uch yoshlida harbiy fanlardan ta'lif olish maqsadida otasi buyrug□i bilan Moskvaga borgan. O□n yetti yoshgacha Qarshi viloyatida hokim bo`lgan.

Amir Olimxonning hayoti va faoliyati.

1881 — Buxoroda mang□it o□zbeklari sulolasidan bo□lmish Amir Olimxon Karmanada tug□ilgan.

1893 — 1896 yillar Amir Olimxon Peterburgda o□qigan.

1896 — Amir Olimxon Peterburgdan Buxoroga qaytadi.

1898 — Amir Olimxon Nasaf viloyatiga hukmron etib tayinlanadi.

1910 — Amir Olimxon Karmana volysi bo`lgan.

1911 — Amir Olimxon Buxoro mamlakati taxtiga o□tiradi.

1921 — yili Amir Olimxon Afg□onistonga o`tadi.

⁶⁴ Noaniqlikka yo`l qo`yilgan. Ubaydullaxon Abulfayzxonning akasi hisoblanadi, otasi emas.

⁶⁵ Bu yerda “bent” ya`ni “qizi” so`zi noo`rin ishlatilgan.

⁶⁶ Сайид Мансур Олимий. Бухоро-Туркистон бешиги.– Б.40-41.

1944 — yili Amir Olimxon Qobilda vafot etadi.

Amir Sayid Olimxon toqqiz yil hukmronlik qilib, 1921 yil aprel oyida Afg'onistonga qochishga majbur bo'lgan. Ma'lumotlarga ko'ra amirning maqbarasi Qobul shahri tevaragidagi «Shahidoni islom» («Islom shahidlari») qabristonida bo'lib, qabr toshiga ushbu sozlar bitilgan: «Bu qabr sohibi alamsitamga topla amir bo'l mish va sultanat surmish zoti oliyning bir kaft tuprog'didan xotira bo'lib, bu kishi Buxoroi sharifdagi mang'itlar sulolasining yettingchi va oxirgi saodatpanoh podshohlaridan edilar. Ya'ni bu janob Allohning mag'firatiga sazovor bo'lgan Amir Sayid Olimxon ibn marhum Amir Sayid Abdulahadxon ibn Amir Muzaffarxon ibn Amir Sayid Nasrullaxon ibn Amir Haydarxon ibn Amir Shohmurod - bu kishi ma'sum G'oziy laqabi bilan ham mashhur — ibn Amir Doniyolxonidurlar. Bul marhumning Buxoroi sharifda amirlik saltanatining o'ninchi yilda rus kofirlari tomonidan Buxoroi sharif bosqinchilik bilan istilo qilingach, fisabililloh muhojir sifatida qoshni yurt bo'lgan Afg'onistonda panoh topgan edilar. Oradan yigirma uch yil o'tgach, 64 yil umr ko'rib, bu islom mamlakati yerida 1323 shamsiy yili savrning beshinchisi shanbasi kuni va hijriy qamariyga muvofiq 1363 yili jumodil avval oyining beshinchisida (1944 yil 28 aprel kuni) bu foniy dunyodan ko'z yumdilar".⁶⁷

Buxoro amirlari hukm yuritishlarida shariat usul va odatlariga rioya qilganlar. Buxoroning islom ulamolari amirni payg'ambar xalifasi o'rinnbosari, usul va shariat himoyachisi deb bilardi. Amirning tirikchiligi butunlay shariatga mos bo'lardi, uni buzishi mumkin emas edi. U doim shariat asnosida ish olib borgani uchun "amir al-mo'minin" deb atashgan. Buxoro amirlari butunlay mang'itlarning ozzbek toifasidan bo'lgan. Buxoro podshohlarining mo'g'il odatlariga ko'ra, oq kigiz ustiga tabarrukona o'tqazilib, Sayid lar, xo'jalar va mullolar uni yerdan ko'tarib, taxtga o'tqazib, toj kiydirganlar. Keyin Qur'oni oldiga qo'yib aytganlar, "shariat yo'lidan chiqish mumkin emas, hukmi shariatga mos kelgan ahkomlarga rioya qilib, iqror va farmonbardor bo'lish zarur", deb ont

⁶⁷ Амир Сайд Олимхон. Бухоро халқининг ҳасрати тарихи.– Б.41.

ichirganlar. Agar shariy hukumlarga, ya'ni Kalom hukmlarini buzsa, Qur'onga havola etish joiz bo'lman. Diniy shart-sharoitlarni tushuntirib, shoh nomiga shohona tabl(nog' ora)larga urib, "islom podshosi, amir al-mo'minin sayid amir falon ibn falonning sultanat davri bo'ldi, Olloh uning hukmronligini va sultonligini abadiy qilsin" deb jar solganlar.⁶⁸ Mamlakatning hamma ixtiyori uning qo'liga o'tib, hokimlarni tayinlash va ishdan olish ham amirning buyrug'i bilan bo'lган.

Mang'it amirlarining hukmronlik yillari:

Muhammad Rahimxon – 1756-1758.

Amir Doniyolbiy(G'oziy)⁶⁹ – 1758-1785.

Amir Shohmurod(Ma'sum)⁷⁰ – 1785-1800.

Amir Haydar – 1800-1825.

Amir Nasrullo – 1825-1856.

Amir Muzaffar – 1856-1885.

Amir Abdulahadxon(Ojiz)⁷¹ – 1885-1910.

Amir Olimxon – 1910-1920.

Amir taxti oldida bir qancha Shig'ovul Mahramu Mahramboshi, mehmonxona mahramlari xizmatda turgan. Ariza va muborak nomalarni olib amirga bergenlar. Hudaychi ham amir xizmatida bo'lib, amirni doim duo qilib turgan. Hudaychining mansabi Shig'ovul amalidan yuqori turgan. Safar va harakat chog'ida (uzanguda) Shig'ovul va Hudaychi amir bilan yurgan.

Amirga barcha hokimlar har yili bir necha marta sovg'a-salomlar(tortiq) berishgan. Tortiqlar ikki xil bo'lgan. Biri "tortig'i shukrona" – shukrona tortig'i bo'lib, hokim yoki biror mansabga tayilanganda berilgan. Ikkinchisi "tortig'i to'qson"⁷² bo'lib, kech kuzda hosil yig'ib olingach berilgan.⁷³ Hadya har xil sovg'alardan iborat bo'lgan. Sovg'alarни hokimning o'g'li, yaqinlari keltirgan.

⁶⁸ Мұхаммад Али Балжувоний. Тарихи нофейй.– Б.21-22.

⁶⁹ Islom kurashchisi hisoblangani uchun shunday nom berishgan.

⁷⁰"amiri ma'sum" – "begunoh amir". O'ta kamtar, adolat tamoyillariga tayanib ish tutgani uchun shunday nom olgan.

⁷¹"Ojiz" taxallusida ijod qilgan.

⁷² "To'qson" sonida qishning 90 kunlik sovuqlari nazarda tutilgan. Tortiqlar noyabr oyining o'rtaida, sovuqlar boshlanadigan va hosil yig'ib bo'lingan vaqtida keltirilgan. Shundan "tortig'i to'qson" termini qolgan.

⁷³ Андреев М.С, Чехович О.Д. Арк кремль Бухары. – С.98.

Ularning yoshi 35-40 yoshdan kam bo`lmasligi kerak bo`lgan. Bular orasida otlar bo`lishi shart bo`lgan. Agar “Rahmatnomma tortiq”lari bo`lsa bitta ot, bir tugun sarpo va shirinliklardan iborat bo`lgan. Shirinliklar: 9 quticha holva, 9 dona rafinad-shakar, 9 dona nozik did bilan pishirilgan katta nonlardan iborat bo`lgan.

Buxorodagi odatga ko`ra tortiqlar 3, 5, 7, 9, 12, 15 tadan shuncha xil buyumlardan iborat bo`lgan. Masalan 9 talik tortiq bo`lsa, to`qqiz xil buyum, to`qqiztadan bo`lgan: to`qqizta tugun choponi bilan, to`qqizta ot va boshqa to`qqiztalik buyumlardan iborat bo`lgan. Eng boy hokimlar amirga ko`p xillik tortiqlar qilishgan. Boy hokimlardan birinchilikda Chorjo`y hokimi, keyin Ziyouuddin, Qarshi, Hisor, Shaxrisabz hokimliklari bo`lgan. Eng katta tortiq 15 tadan shuncha xil buyumlardan iborat bo`lgan. Eng kambag`al hokimlar, Burdaliq, Kalif hokimlari beshtadan va hatto uchtadan xil tortiq yuborishgan. Amirga yuborilgan otlar qabul qilingach, ularga “manzur” deb nom berishgan.⁷⁴

Amirning uchta maxsus imomi bo`lgan. Namoz vaqtida qaysi imomning namozni boshlashini amirning o`zi belgilagan. Amir huzurida doimo, hattoki hayit bayramlari vaqtida ham imomlar faqat amirning ruxsati bilan oldinga chiqib, namozni boshlashgan. Uning ruxsatisiz hech bir imom oldinga chiqishi va namoz o`qishi mumkin bo`lmagan. Chunki amir “imom al-muslimin” –“musulmonlar imomi” hisoblangan.⁷⁵ Mavjud guzar masjidlarining imomini tasdiqlash amirning vakolatiga kirgan.

Mirza kalon amirga kelgan ma`lumotlarni yetkazgan. Amir ularni ko`rib, muhrini qo`ygan. Amirga hujjatlarni darbon olib kelgan. “Darbon” (eshik qo`riqllovchisi, eshik oldida turuvchi) amirlikda asosiy kishi hisoblangan. Uning vakolatiga amirlik markazidagi xavfsizlik kirgan. U qamalgalarni nazorat qilish, ashaddiy jinoyatchilarni so`roq qilish kabi vazifalarni bajargan. U to`pchiboshi yoki to`pchiboshi arki oliv nomi bilan qo`shbegi kalon singari hech qachon arkni tark etmagan. Namozlarni ham arkdan tashqaridagi masjidda o`qimagan. Hatto yilda ikki marta bo`ladigan eng katta hayit bayramlarida umumiylam namozni arkdan

⁷⁴ Андреев М.С, Чехович О.Д. Арк кремль Бухары – С.133.

⁷⁵ O'sha asar, – В.92.

tashqarida o`qishi mumkin bo`lmagan. Qo`shbegi va darbon hech qachon amirning buyrug`isiz arkni tark etishi mumkin bo`lmagan.⁷⁶

Amir amirligidagi barcha katta lavozimlarni o`zi tayinlagan va lavozimidan ozod etgan. Amir davlatning nafaqat siyosiy balki, diniy rahnamosi ham bo`lgan.

Mang`it amirlari davrida Karmanadagi Chorbog`i Mirzo, Chorbog`i Charmgari hamda Chorbog`i Olchin poytaxt amirlarining dam oladigan joyi sifatida ma'lum bo`lgan. Podsho har yili bu yerlarga dam olish uchun a'yonlari bilan kelgan. Yana Qarshi, Shahrисabz va Buxoro tumanlarida ham xos joylar bo`lgan. Har xil chorbog`lar va yasatilgan qasrlar boshqa joylarda ham bo`lgan.⁷⁷

II.2.Amirlikdagi mansablar va ularning vazifalari.

Buxoro amirligidagi mang`itlar hukmronligi davridagi manbalarda katta mansablar tilga olingan va ularning aniq vazifalari to`liq berilmagan. Vaqt o'tishi bilan bu mansablarning vazifalari o`zgarib turgan. Buxoro amirligidagi mansab va lavozimlar to`g`risida Mirzo Badi` Devonning “Majma` ul-арqom”, Muhammad ali Baljuvoniyning “Tarixi nofeiy ”, A.A.Semyonov va B.A. Vil`danovalarning asarlari orqali ma`lumotlarni olamiz.

Mansablar odatda “harbiy”, “diniy”, “fuqarolik” kabi turlarga bo`lingan. Lekin Majma` ul-арqom asarida mansablarning bu turlarga ajratilishini uchratmaymiz. Asarda “shariat” asosida Buxoro hokimlari hisoblangan diniy olimlar – Sayidlar birinchi o`ringa qo`yilgan. Undan so`ng davlat mansablari(mansab-i hukkam)⁷⁸ keltirilgan. Shu bilan birga asarda boshqa daraja vakillari: axl-i kalom(qalam ahli)⁷⁹dan to saroyga faqat piyoda kirishi mumkin bo`lgan mansablargacha berilgan.⁸⁰ “Tarixi nofeiy ” asarida ham mansablar to`g`risida ma`lumotlar berilgan, lekin ularni turlarga ajratmagan. “Tarixi nofeiy ”ning uchinchi maqsadi “Buxoro podsholarining saltanatlarining tartibi haqida”

⁷⁶ Андреев М.С, Чехович О.Д. Арк кремль Бухары. – С.129.

⁷⁷ Муҳаммад Али Балжувоний. Тарихи нофей. – Б.36.

⁷⁸ Мирза Бадиъ Диван. Мажмаъ ул- аркам. – С.-92.

⁷⁹ Мирза Бадиъ Диван. Мажмаъ ул- аркам–С.141-144.

⁸⁰ Анке фон Кюгельген. Легитимация Средноазиатской династии мангитов в произведениях их историков. – С.93-94.

deb nomlanib, u yetti fasl(qism)dan iborat. Bu maqsadda amirlikdagi mansablar haqida ma`lumot berilgan.

Buxoro amirligida eng yuqori mansab “otaliq” yoki “amir ul-umaro” hisoblangan. “Otaliq”(ota o`rnida ota) mansabi valiahd shahzoda-larni tarbiyalash ishini olib borgan. Shu bilan birga hukmdorlarga eng ishonchli kishi va maslahatchi ham bo`lgan. “Otaliq” vazifasiga ko`ra ular saroyga har hafta davlat hayoti haqida hisobot berib turgan. Mang`it amirlari Muhammad Rahimxon va amir Doniyolbiylar otaliq mansabida bo`lganlar. Ular davlatni amalda boshqarib, soxta xonni rasmiy hukmdor qilib qo`yishgan.

Amir Shohmurod davrida “otaliq” mansabiga o`zgartirishlar kiritilgan. “Otaliq” va “amir ul-umaro” mansablari bir-biridan ajratilgan. Amir Shohmurod o`zini “amir ul-umaro” nomi bilan atagan. “Otaliq” mansabiga o`zgartirganiga sabab, Shohmurod davrida hech qanday soxta xon bo`lmagan va u hech kimga hisob va maslahat ham bermagan.⁸¹ Bu narsani biz “Majma ul-arqom” asari orqali ham bilishimiz mumkin. Unda “otaliq” mansabi vazifasiga Buxorodagi daryo(Zarafshon) ustidan nazorat qilish, Samarqanddan – Qorako`lgacha bo`lgan hududda suv taqsimotini to`gri ta`minlash vazifalari kirgan. Shu bilan birga shaharning bosh kanali hisoblangan “Shoxrud” kanali ustidan nazoratni amalga oshirish va “dorug`a”(militsiya boshlig`i) vazifalarini ham bajargan.⁸² Bundan ko`rinib turibdiki bu vaqtga kelib, “otaliq” mansabiga oldin mavjud bo`lgan yuqori martabali harbiy va fuqarolik vazifalari qolmagan. Demak, Shohmurod davridan boshlab “otaliq” mansabi endi faqat faxriy nom bo`lib qoldi. Buxoroning oxirgi ikkita amiri Abdulahadxon va Olimxon davrida bu mansab Hisorlik qo`shbegi Ostonaquldan boshqa hech kimga berilmagan.⁸³ “Tarixi nofeiy ”da ham “otaliq” mansabi eng yuqori hisoblanganini ko`rishimiz mumkin. Lekin unda “otaliq”

⁸¹Анке фон Кюгельген. Легитимация Средноазиатской династии мангитов в произведениях их историков. – С.98-99.

⁸²Мирза Бадиъ Диван. Мажмаъ ул- аркам.– С.-95.

⁸³ Мирза Салимбек. Тарих-и Салими. –С.286.

mansabi vazifalari va uning XX asr boshlarida kimga berilgani to`g`risida hech qanday ma`lumot yo`q.⁸⁴

“Qo`shbegi” mansabi amirlikdagi fuqarolik mansablari ichida eng yuqori mansab bo`lgan. “Qo`shbegi” terminini izohlashda olimlar turli xil ma`lumot berishgan. Masalan “Majma` ul-arkom” asarida “qushbegi” shaklida ishlatilgan va uning vazifasiga “Ovchilar, ovchilik asboblari, qushlar va itlardan xabardor bo`lib turadigan amaldor” sifatida baho bergan.⁸⁵ Aslida esa “qo`shbegi” – “qo`sh”-qarorgoh, “begi”-rahbari, egasi ma`nosini anglatadi.

“Tarixi nofeiy ”da keltirilishicha Buxoro amirligidagi eng yuqori vazir qo`shbegi bo`lgan. Uni “*vazoratpanoh*”, “*Vazorati oliv*” deb aytishgan Davlatning hamma ishlari uning qo`lida bo`lgan. U davlatning eski, tajribali, ishbilarmon, siyosiy ahvoldan xabardor odamlaridan tasdiqlangan. Nomzod, avval, devonbegi mansabiga erishishi lozim bo`lib, shunda qo`shbegi bo`lishga loyiq sanalgan. Agarda hokim bo`lsa ham u qo`shbegi bo`lishi mumkin bo`lgan. Qo`shbegi mansabi ham ikkita bo`lgan. Birinchisi “qo`shbegi kalon” va ikkinchisi “qo`shbegi poyon”. Bunday atalishiga sabab “qo`shbegi kalon” doim arkda yashagan va har qanday vaziyatda arkni tashlab chiqishi mumkin bo`lmagan. “Qo`shbegi kalon”ning huquqi boshqa vazirlarnikidan ortiq bo`lgan, u hibsga olish, jazo berish, qatl qilish, gunohkor molini musodara etish huquqlariga ega bo`lgan. Uning bir necha umumi devonbegilar bo`lib, ular minglab kishilarga taom va sarpo berishlari mumkin bo`lgan. Qo`shbegining hashamati podshohning hashamatiga yaqin bo`lgan.⁸⁶ “Qo`shbegi poyon” esa ark oldida mahkamasi bo`lgan. “Qo`shbegi poyon”ni – *zakotchi* deb ham ataganlar. Chunki u mol zakoti, daryo, chegara, yo`l qorovullari uning qo`lida bo`lgan. “Qo`shbegi poyon” harbiy harakatlar vaqtida lashkarboshi etib tayinlangan.

⁸⁴ Мухаммад Али Балжувоний. Тарихи нофей. – Б.23.

⁸⁵ Мирза Бадиъ Диван. Мажмаъ ул- аркам. – С.97.

⁸⁶ Мухаммад Али Балжувоний. Тарихи нофей. – Б.26.

Davlatda favqulodda holatlar bo`lib qolganda “kull qo`srbegi”(hamma qo`srbegi) mansabi ham joriy etilgan. Bunday vaqtida “qo`srbegi kalon” - “qo`srbegi poyon”ning vazifalarini ham bajargan.⁸⁷

“Majma` ul-arqom” asarida mansablarni darajalarga bo`lib, qimmatli ma`lumotlarni keltirgan. “Majma` ul-arqom” ma`lumotiga qaraganda eng oliv mansab qoziylar mansabi bo`lgan. Ulardan oliv darajada shayx ul-islom unvoni, keyin qozi ul-quzzot, uchinchisi qozi askar, to`rtinchisi viloyat qozisi bo`lgan.

XX asr boshiga kelib Qozi kalon(qozi ul-quzzot) va Raisi kalon mansablari Buxoro amirligi hayotida asosiy o`rinni egallagan. Qozi kalonni yana “qozi sha`ri sharif” deb ham ataganlar. Bu ikki mansab egalari jazo berish, molini musodara qilish, shariat bo`yich sud qilish, hibsga tashlashga huquqlariga bo`lgan.⁸⁸

Shu martabalarning keyingi ikkinchi pog`onasida muftilar. Uning yuqori darjasasi a`lam mansabi bo`lib, sohibi yurish va lashkar tortishlar vaqtida fatvo bergen. Muhtasib uchunchi darajada turgan. Sayidlar avlodidan bo`lishi lozim bo`lgan. Viloyatlarda esa sayid bo`lmagan olimni ham muhtasiblikka tayinlangan. To`rtinchchi mudarris. Bir umrga berilib, ta`lim bilan mashg`ul bo`lmasa ham xazidan maosh olgan. Yuqoridagilardan keyingi martabada Jo`ybor xo`jalari, naqib, o`roqi kalon(katta o`roq), naqshbandiya tariqatining xalifasi turardilar. Jo`ybor xo`jası sayidlarga berilib, jo`ybor hukumati (xo`jalar mozori bilan) uning qo`lida bo`lgan.⁸⁹

Uchinchi darajali unvonlar olimlar, sayidlar, o`zbek va mahalliy zodagonlarga loyiq deb topilgan amaldorlarga berilgan. Birinchisi “mir asad”. Ulamolardan yoki sayidlardan bo`lgan. Buxoro rabotining ichki muhtasibligi bir farsah⁹⁰gacha uning zimmasida bo`lgan. Ikkinci “fayzi” mansabi, olim yoki sayid bo`lgan kishiga berilgan. Buxoro rabotining tashqi muhtasibligi bir farsah masofada uning zimmasida bo`lgan. Uchinchi “sadr”. Buxoro rabotining bir farsahlik hududning ichkarisidagi vaqflar hisob-kitobi uning qo`lida bo`lgan.

⁸⁷ Мирза Салимбек. Тарих-и Салими. – С.283.

⁸⁸ Мухаммад Али Балжувоний. Тарихи нофейй.– Б.24-26.

⁸⁹ Вохидов Ш. Кўкон хонлиги ва Бuxoro амирлигига унвон ва мансаблар.– Б.25-26.

⁹⁰ Bir farsah 6-7 km.

To'tinchisi “sudur”. Shu rabotning tashqarisidagi vaqflarning hisob-kitobi uning vazifasida bo'lgan.⁹¹

To'rtinchi xizmat pog'onasida ahli qalam turganlar. Birinchi amal “devoni kalon”. Amir daftarlaring saqlanuvchisi. Tanho, bilg'u va boshqa hujjatlarga javobgar amaldor. Ikkinci “mushrif”. Amir beradigan in'om, hadyalar, ehson va iltifotlarini yozib, maxsus daftarda qayd qilib borgan. Uchinchi “daftardor”. Katta devondagi tanhodor va suyurg'ol egalarini ishdan olish va amalga qo'yish tartibini nazorat qilgan. To'rtinchi “devoni tanobona”. Bahorgi va kuzgi ekinlardan tushadigan xiroj, kirim-chiqim va xarajat ishlarini olib borgan.

Beshinchi toifa amaldorlar va mansablariga “munshi”- amir inoyatnomalari, duo va salomi, istaklarini yozib, o'qib borgan. Amallar yorliqlarini yozib amirga qo'l qo'ydirib olib, egalariga yetkazgan. “Arbobi daruni shahar”(shaharning arbobi) – shahar ichidagi anhor va ariqlari ustidan nazorat qilib, tozaligiga javob bergan. “Devoni arabxona” – arablar jamoasi ishlarini, ulardan navkar olish va raiyat qatoriga kiritish masalalarini hal qilgan. “Devoni tavjih” – daftardor va devoni tanobxonaga itoat qilgan. “Avorij”(ya'ni soliq, xiroj, zakot va boj mablag'larining hisob-kitob devoni) va “tavjix” ya'ni xarajat devoni daftarlarning aniqligiga javob bergan.⁹²

Oltinchi martabadagi amallar yuqoridagilardan pastroq hisoblanar edi. Birinchi darajali kitobdor amali. Olimlar, fozillar va shoirlarning amirga peshkash qilgan asarlarini amir qabul qilgandan so'ng, kitobdor uni olib, kitobxonada tartib bilan saqlagan. Ikkinci “baxshi”. Imorat, qutvol(qurilish) devonining sarfu-xarajatiga javob bergan. Uchinchi sayisxona(molxona)si devoni. Saroy otlari, xachir va tuyalari uchun lozim bo'lgan egaru-jabduq, graxband (bo'yinbog'), tumorcha, tabl (nog'ora), tablcho'p, qamchi, mo'g'lay, jig'a, gajjim, uzangi, yoping'ich va shunga o'xhash narsalarni tayyorlaydigan amaldor bo'lgan.

⁹¹ Мирза Бадиъ Диван. Мажмाъ ул-аркам.– С.93.

⁹² O'sha joyda, – С.94.

To`rtinchi to`shaklar devoni. Amir xazinasiga tushadigan narsalarni ro`yxatga olib, kiyim, qurol-aslaha va ularning sarf-xarajati uchun javob bergan.⁹³

Yettinchi darajadagi amallar yuqoridagilardan pastroq bo`lib, ular “kichik mushrif”, paygirnavis, devoni mahram(mahramlar devoni), devoni yasovul(yasovullar devoni) hisoblangan.⁹⁴

Sakkinchi darajadagi amallarga devoni sarkor muharriri(mirzosi), amlok mirzosi, voqeanavis, omborxona mirzosi kirgan.

Umarolarning mansablari quyidagicha bo`lgan. Bu amallar sohiblarining amir huzurida alohida o`rinlari bo`lgan. I. “Otalik”. Buxoroi sharif suvining idorasи, Samarqanddan - Qorako`lgacha bo`lgan suv taqsimoti uning qo`lida bo`lgan. Buxoro mirobliги va dorug`aligi ham uning vazifasiga kirgan.

II.”Devonbegi kalon” – katta devonbegi. Viloyat xirojining hisob-kitobi uning zimmasida bo`lgan. Davlat hisobidan to`shakxona mehtariga, g`alla zahirasidan amlokdorga, “devoni kalon”, devoni tanobxonaga daftarlarga muvofiq xarajatlarni bergan. Qorako`l mirobliги ham devonbegi qo`lida bo`lgan.

III.”Parvonachi”. Amir farmoniga binoan uning yorliqlarini ulamolar va zodagonlarga yetkazgan. Arabxona jamoasining rahbarligi ham uning zimmasida bo`lgan.⁹⁵

IV. “Dodxoh” – Mazlumlar arz-dodlarini podshohga yetkazib, javobini qaytargan. Amir ijozati bilan ba`zan o`zi ham arizalarni ko`rib chiqgan.

Amirning yaqinlariga beradigan amal va mansablar quyidagicha bo`lgan;⁹⁶

I.”Ko`kaldosh”. Amirning eng yaqin kishilaridan bo`lib, uning dushmanlari, do`stlari va xayri-xohlaridan xabardor bo`lib turgan.

II.”Qo`shtbegi Kalon” – katta Qo`shtbegi. Ovchilar, ovchilik asboblari, qushlar va itlardan xabardor bo`lib turadigan amaldor.⁹⁷

⁹³ Шодмон Воҳидов. Қўқон хонлиги ва Бухоро амирлигига унвон ва мансаблар. – Б.27.

⁹⁴ O`sha joyda.

⁹⁵ Шодмон Воҳидов. Қўқон хонлиги ва Бухоро амирлигига унвон ва мансаблар. – Б.28.

⁹⁶ Мирза Бадиъ Диван. Мажмаъ ул- аркам – С.97-98.

⁹⁷ “Мажмаъ ул- аркам” asarida “qo`shtbegi” mansabi vazifalari va uning terminologik ishlatalishi boshqacha berilgan. Tadqiqotning 41-betiga qarang.

III.”Inoqi Kalon” – katta inoq. Umaro, shogirdpeshalar va boshqa-larga amir suhbatiga musharraf bo`lgan yoki bo`lmaqanlari to`g`risida xabar bergen.

IV. “Xo`jai Kalon” – katta xo`ja. Saroy mahramlarining kattasi. Amir harami eshigining posboni. Haramga lozim bo`lgan oziq-ovqat va kiyim-kechaklarni yetkazib bergen. Yuqorida zikr etilgan amallarning amir atrofida maxsus o`rinlari bo`lgan. Bular ahli qalamdan alohida turgan. Amir ijozati bilan “devonbegi kalon” saroyga otga minib kelishi mumkin edi.⁹⁸

Quyidagi amaldorlar ham amir yaqinlaridan bo`lib, amirning amri bilan otda saroyga kelishlari mumkin bo`lgan. Bularning martabalari “ko`kaldosh”, “qo`shtbegi”, “inoq” va “xo`ja kalon”dan ancha past turgan. Bular “inoqi xurd”(kichik inoq), “mehtari kalon”(katta mehtar), “devoni sarkor” va “dasturxonchi”. “Inoqi xurd” amir muhrlari saqlanadigan sandiqchaga posbonlik qilgan. Elchilarning xatlari, arizalari avval “inoqi xurd”(kichik inoq) qo`liga berilgan. U xatni ochib, amirning amri bilan ovoz chiqarib o`qib berish uchun “munshiy”ga bergen. “Mehtari kalon” vazifasi shundan iborat ediki, musulmonlar ushrlaridan to`rtadan birini, musulmon bo`lmaqanlardan ushrlarning yarmini, harbiylar ushrlarini naqdini, g`alla va boshqa topilgan narsalar bilan hisob-kitob qilgan. “Devoni sarkor” amali shundan iborat ediki, davlat mulklari, tegirmonlari, do`konlari hisob-kitob ishlarini bajarib, amir haramiga tegishli xarajatlarini bergen. Qabul marosimlari, oziq-ovqatlar, sarpolar xarajatini ham u bergen.

“Dasturxonchi” – shoh dasturxoniga javobgar bo`lib, go`shtni maydalab berib, mahramlarga boshchilik qilgan.

Quyidagi to`rt amallarning egalari amir xohishiga muvofiq shoh suhbatiga ba`zan musharraf bo`lishlari mumkin edi, ba`zan esa yo`q. Bular to`pchiboshi kalon – to`pxona boshlig`i(Amir Olimxon davrida aksariyat qo`shin uning qo`lida bo`lgan). “Bakovuli kalon” – katta bakovul bo`lib, amir oshxonasi va uning xodimlarining boshlig`i. Somjon⁹⁹ tumanining mirobliги ham uning qo`lida edi.

⁹⁸ Шодмон Воҳидов. Кўқон хонлиги ва Бухоро амирлигига унвон ва мансаблар.–Б.28-29.

⁹⁹ Buxoro viloyatining hozirgi Romiton tumani.

“O’roqi xurd”(kichik o’roq) – amirlar va ahli rikob(uzangi)¹⁰⁰ mulozimlari va xizmatkorlari ustidan nazorat qilish uning vazifasi edi. “Kavshbardor” (poyafzal ko’taruvchi), “asbobdor” (asov ko’taruvchi),

“chuhra oqasi”¹⁰¹, jilovdorlar, xizmatkorlar qatoriga kirganlar.¹⁰²

“Eshik og’osi”, “chig’atoy begi”, ”to’qsoba”, va “miroxuri kalon”(katta miroxur) saroya otga minib kelishlari mumkin bo’lsa ham, lekin amir huzurida maxsus o’rinlari yo’q edi. “Eshik og’osi” – amir saroyining posbonligi va muhofazasi, hamda Shofirkon tumaning hukumati va mirobligi uning zimmasida edi.

Chig’atoy begi – chig’atoy jamoasining boshlig’i va Mirobod tumaning mirobligi ham uning qo’lida edi.

“To’qsoba” – amir dasturxoni ustiga idish-tovoqlarni tartib bilan qo’yib, amirga sharbat, ayron va yaxob quyib bergen. Amir dasturxonini nazorat qilgan. Harqonrud tumaning hokimligi va mirobligi ham uning qo’lida bo’lgan.

“Mirioxuri kalon” – katta miroxur. Amir otxonasi boshlig’i. “Parvona”ga o’xshab atrofidan xabardor bo’lib, Abu Muslim tumaning mirobligi unung zimmasida bo’lgan.¹⁰³

Quyidagi amaldorlar saroya piyoda kirib borganlar. Martabalari “inoqi xurd” darajasiga yaqin bo’lgan. Bular qo’rchiboshi – surp(qo’rg’oshin), borud zahiralarining tayyorlashiga javob berardi. Ba’zi ariqlarning mirobligi ham unga berildi. “Udaychi” – urush va yurishlar vaqtida sarbozlarni saf-saf tartibga solar, naqib maslahati bilan mulozim va xizmatkorlar bilan ta’mnlardi. Qorovulbegi – qorovullar, posbon va soqchilar boshlig’i. Davlat xavfsizligiga javobgar edi. To’shakxona mehtari – qo’shin va askarlarini zarur bo’lgan kiyim-kechaklar bilan ta’mnagan, maoshlarni xazinadan bergen.

¹⁰⁰ «rikob» otning uzangisi, ya’ni egarning pastidagi oyoq qo’yadigan joy. Buxoro amaldorlari “rikob” deganda amirning safarga, ovga, urushga chiqishini nazarda tutganlar, ya’ni harakat vaqtin.

¹⁰¹ To’liq “chuhra oqa boshi”-amir saroyida xizmat qiladigan o’smir, yosh yigitlar rahbari.

¹⁰² Мирза Бадиъ Диван. Мажмав ул-аркам. – С.98.

¹⁰³ Шодмон Воҳидов. Қўқон хонлиги ва Бухоро амирлигига унвон ва мансаблар. – Б.30.

Bulardan keyin “voiz”, “ko`kaldosh xurd”(kichik ko`kaldosh), “yasovul”, “mahram”, “tunqotar” turardi. “Chehra og`osi”, “yasovul”, “jarchi” va “buyum otaliq”(ta`zim qilish qoida-tartibini nazorat etuvchi) amallari ham bo`lgan.¹⁰⁴

“Tarixi nofeiy ” asarida "Shoh aqso" martabasi haqida ham fikr bildirilgan: “"Shoh aqso"dan yuqori martaba va manzarat bo`lmagan. Yuqoridagi shaxslar amir va vazir ziyyaratiga borib, har xil in'om va hadyalar olib turganlar. Shoh aqsoning hashamati va silsilasi sarkardalarnikiga qariyb yaqin kelgan”.¹⁰⁵

“Tarixi Salimi” asarida Buxoro amirligidagi 15 ta mansab borligi to`g`risida ma`lumot berilgan. Bular quyidagilar:

1.Tunqotar. 2.Chuhra oqosi. 3.Mirobboshi. 4.Jibachi. 5.Qorovulbegi. 6.Miroxur. 7.To`qsoba. 8.Eshik og`aboshi. 9.Biy. 10.Dodxoh. 11.Inoq. 12.Parvonachi. 13.Devonbegi. 14Qo`smbegi. 15.Otaliq.¹⁰⁶

Amirlikdagi boshqaruv tizimi-mansablar to`g`risida amir Olimxon ham ma`lumot bergen: ”Buxoronning siyosiy va idoriy ishlari esa qo`smbegi deb atalgan bir kishi raisligi qo`l ostida idora qilinardi. Mamlakatning moliyaviy ishlari devonbegi qo`l osti va nazorati asosida amalga oshirilar edi. Diniy masalalar, qozilik ishlari, umumiyligi ta'lilot masalalari bilan shugullanish qozi ul-quzzot – qozilar qozisining burchiga kirardi. Askariy ishlari esa to`pchiboshi rahbarligida o`tar edi. Uning vazifa darajalari ushbular qaroridan kelib chiqadi: qo`smbegi, devonbegi, parvonachi, inoq, dodxohbiy, to`qsoba”¹⁰⁷.

Amir Olimxon davriga kelib eng yuqori darajali amallar qo`smbegi, devonbegi, parvonachi, inoq, dodxoh, to`qsoba, to`pchiboshi bolib qolgan edi. Amir Olimxon mansabdorlari va harbiy amaldorlariga xizmatlari uchun Aleksandr III ordenini bergen.¹⁰⁸

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, Buxoro amirligidagi bir necha asrdan beri saqlanib kelayotgan mansablarning ba`zan nomlari, ba`zan uning vazifalari

¹⁰⁴ Шодмон Воҳидов. Қўқон хонлиги ва Бухоро амирлигига унвон ва мансаблар. – Б.32.

¹⁰⁵ Муҳаммад Али Балжувоний. Тарихи нофеий. – Б.35.

¹⁰⁶ Мирза Салимбек. Тарихи Салими. – С.276-301.

¹⁰⁷ Амир Сайид Олимхон. Бухоро халқининг ҳасрати тарихи. – Б.35.

¹⁰⁸ Шодмон Воҳидов. Қўқон хонлиги ва Бухоро амирлигига унвон ва мансаблар. – Б.32.

o`zgarib turgan. XX asr boshiga kelib, ayniqsa amir Olimxon davrida asosan qo`shbegi, raisi kalon, qozi kalon va devonbegilar amirlikdagi tizimni o`z qo`liga olgan edilar. Amir Olimxon esa davlatdagi ishlardan to`liq xabardor emas edi, ko`proq aysh-ishrat, “dekchapazi”(qozonchada ovqat pishirish) o`yinlari bilan mashg`ul bo`lgan. Bu to`rtta amaldorning Buxoroda mavqeining oshishiga yana bir sabab, amir Abdulahadxon ham Olimxon ham o`zining ko`p vaqtini shahardan tashqarida Karmana yoki Sitorai Mohi Xossa saroyida o`tkazgan. Poytaxtda bo`layotgan ishlar xususida oylab ma`lumotlarga ega bo`lmagan. Faqat sho`ro istilosi arafasida amir Olimxon xavfsizlik yuzasidan arkda yashashga majbur bo`lgan.

III.bob. “TARIXI NOFEIY ” ASARIDA BUXORODA MADANIY- MA`RIFIY HAYOTNING AKS ETISHI

III.1. Masjid va madrasalar.

Buxoroda qadimdan ilm-fan rivojlangan. Bu shaharni bezizga “ilm bog`chasi” deyishmagan.¹⁰⁹ Buxoroda olim, fozil, solih odamlar ko`p bo`lgan. Tarixi mullozoda asarida uni “Qubbat ul-islom” deb aytilgan. Buxoro shahrini “Baldat ul-omon” (Tinchlik shahri) hamda “Foxira” (faxr etuvchi) deb ham ataganlar. Bu yerda aziz avliyo va ulug`lar ko`p bo`lgan. Tafsir, hadis, fiqh, kalom, usul, sarf va nahv ilmlaridan iborat bo`lgan shariat ilmlari rivojlangan. Biroq riyoziy va siyosiy ilmlar azaldan ham bu shaharda keng tarqalmagan. Shuning uchun Buxoro davlatining siyosati boshqa islomiy davlatlar singari orqada qolgan edi.

Masjidlar Buxoro aholisi hayotida alohida o`rinni egallagan. Masjidlar besh vaqt namoz o`qish uchun mo`ljallagan. Shu bilan birga jome` masjidlari ham mavjud bo`lgan. Jome` masjidlari asosan shaharning odam gavjum qismida, bozorlar yaqinida bo`lgan. Bularga misol qilib XVI asrda qurilgan Masjidi kalon, XIX asrda qurilgan Boloi hovuz, Nodir Devonbegilarni misol qilish mumkin. Masjidlarning soni to`g`risida turli xil ma`lumotlar uchraydi. Ko`plab asarlarda ularni soni 360 taligi yozilgan.

Muhammad Baljuvoniy Buxoroda ikkita mashhur katatakon masjidlari borligi, aslida, bu binolar besh vaqtlik namoz uchun qurilgan bo`lib, juda ham kengligini aytib o`tgan. Bu ikki masjidning har birida taxminan 3-4 ming namozxon jamoat bilan namoz o`tashlari mumkin bo`lgan. Birinchisi Labi Havzi Devongbegi masjidi, ikkinchisi, Boloi Labi Havzi Oliy masjidi. U ham juda oliy va serviqor bo`lgan.

Buxoroda yana 17 ta jome` masjidi mavjud bo`lgan. Birinchisi masjidi Kalon. Keyingi bino Shams ul-mulkniki bo`lgan. Uchinchi binoni Abdullazizzon ibni Abdullaxon ibn Mahmud Sulton qurgan. U hozir Abdullaxon nomi bilan

¹⁰⁹ Муҳаммад Али Балжувоний. Тарихи нофейй. – Б.9.

mashhur. Boshqa bir rivoyatga ko`ra, ikkinchi imorat qizil Arslonxonni bo`lgan ekan.¹¹⁰

Buxoroda uchta masjidida idayn (ikki iyd - hayit) namozini o`qiganlar: birinchisi masjidi Kalon, ikkinchisi masjidi Poyanda, uchinchisi Shayx Jalol darvozaning tashqarisida, Shams ul-mulk Chorbog`ida ham idayn namozlarini o`qiganlar.

“Tarixi nofeiy” asarida shaharda 400 madrasa va 296 ta besh vaqtlik namoz o`qiladigan masjid, 18 ta jo`me masjidi, 80 ta qabriston mavjud bo`lganini yozgan. Shu bilan birga Buxoro shahridda 13 ta kitobxona, 96 ta qorixona (qiroat xona) va maktabxona faoliyat ko`rsatganligi bayon qilingan.¹¹¹

Xuddi shu ma`lumotlarga qo`sishimcha va solishtirish maqsadida shu davr madaniy hayoti to`g`risida yozilgan boshqa asarlardan misollar keltiramiz. Jumladan Amir Olimxonning Afg`onistonda tug`ilgan va keyinchalik Turkiyada yashagan o`g`li Sayid Mansur Olimiyining “Buxoro-gahvorai Turkiston”(Buxoro-Turkiston beshigi) asarida quyidagi ma`lumotlarni keltirilgan: ”Amir Sayid Olimxon hukmronlik davrining oxirlarida Buxoro shahridda 360 masjid mavjud bo`lib, shulardan 70 tasi jome' masjidi bo`lgan. Shuningdek 100 ta madrasa va 40 ta yirik mehmonxona¹¹², 35 ta hovuz kabi hayotiy zarur binolar mavjud edi. Go`zal va naqshinkor bu imoratlar to mang`itlar sulolasining oxirgi davrlarigacha mavjud bo`lib, lekin kommunistlar davrida bir qancha masjidlar, madrasalar va ilm maskanlari buzib tashlangan.¹¹³

Buxoro shahrini chuqur o`rgangan etnograf O.A.Suxareva Buxoroda 217 ta masjid borligini yozib qoldirgan. U o`zining bunday xulosaga kelishiga, Buxoroda jami 220 ta kvartal bo`lgani, shundan 3 tasi ikkita Pistashikanin va Paykana kvatallarida masjidlar bo`lmasani bilan izohlaydi.¹¹⁴

¹¹⁰ Мұхаммад Али Балжувоний. Тарихи нофей. – Б.13.

¹¹¹ Мұхаммад Али Балжувоний. Тарихи нофей. – Б.34.

¹¹² Buxoroda karvonsaroylar mehmonxona vazifasini bajargan. XIXasr oxiri-XXasr boshlarida Buxoroda karvonsaroylar qurilishi rivojlangan. Bu yerda keltirilgan mehmoxona- karvonsaroy bo`lsa ajabmas.

¹¹³ Сайд Мансур Олимий. Бухоро-Туркистон бешиги. – Б.12.

¹¹⁴ Сухарева О.А. - Бухара конца XIX - начала XX в. (Позднефеодальный город и его население). – С.68

Buxoro qozi kaloni Muhammad Sharifjon Sadri Ziyo¹¹⁵ esdaliklarida Buxoro shahridagi masjidlar nomini quyidagi tartibda keltiradiki, bu ham "Tarixi nofeiy " ma'lumotlarini to'ldiradi: 1. Masjidi Kalon; 2. Xonaqohi xiyobon; 3. Masjidi Ho'ja; 4. Xonaqohi Devonbegi; 5. Shayx Shona; 6. Usta Ruxi; 7. Shoh Axei; 8. G'oziyon; 9. Xol Niyozquli; 10. Xo'ja Porso; 11. Amir Do'stum; 12. Xalifa Husayn; 13. Xonaqohi Jo'ybor. 14. Xonaqohi Olim Xo'ja; 15. Dilkushoi darun masjidi; 16. Mavlono Sharif masjidi; 17. Qul Mirzobek; 18. Xonaqohi Abdulaziz; 19. Mirkon masjidi; 20. Xonaqohi Mirkon; 21. Xonaqohi Ho'qandi; 22. Imam Bakr Fazl masjidi; 23. Oy biy inoq; 24. Amiriyy masjidi; 25. Obravon; 26. Ehsoni Pir; 27. Imam Qozixon; 28. Atoliq masjidi; 29. Islom masjidi; 30. Avliyo G'arib; 31. Jalqutti davvut (Ikkinch jalqut) masjidi; 32. Axtachi; 33. Isqandarxon; 34. O'zbek Xo'ja; 35. Ahmad dorug'a; 36. Alvonj masjidi; 37. Ehsoni Imlo; 38. Urganjiyon masjidi; 39. Oq masjid; 40. Xo'ja Aspgardon; 41. Asiri; 42. Bozori gul; 43. Boboi Ol; 44. Boloi Havz; 45. Boboi Nonqash; 46. Birinchi jalqut masjidi; 47. Boqijon naqib; 48. Bargiyon; 49. Masjidi Besutun; 50. Bahodurbiy; 51. Pochoqulhoji; 52. Ilonjo; 53. Sharifjon masjidi; 54. Sher Muhammad Juvozqan; 55. Shayx Jalol; 56. Shomuljo'ybor; 57. Shishaxona masjidi; 58. Shukur biy; 59. Shahri Nav jo'ybor; 60. Shayx Rangrez; 61. Sobungaron; 62. Siddiqiyon masjidi; 63. So'fiyon masjidi; 64. Zabiyon; 65. Toqi Sarrofon; 66. Zargaron masjidi; 67. Tabibon masjidi; 68. Abdullo Qo'chqor masjidi; 69. Askarbiy; 70. Aloqabandon masjidi; 71. Azizon; 72. Arabon; 73. Abdullohxo'ja Jo'ybori masjidi; 74. Abdulloh qo'shbegi; 75. Farmonqulixon; 76. Fatxulloh qo'shbegi; 77. QalTaqiyon; 78. Qozi Fayzi; 79. Qo'chqor qo'rchi; 80. Qaro Qamol; 81. Qobul Ota; 82. Hazrati Ayub; 83. Hammomi Kunjak; 84. Hoji D orug'a; 85. Hoji Zamuchi; 86. Hoji Shayxshoh; 87. Hoji Zaynuddin; 88. Halifa Xudoydod; 89. Hosi Fo'lod; 90. Hoji Qurbon; 91. Xo'ja Tabib; 92. Xo'ja Pastak; 93. Xo'ja Halim; 94. Xo'ja Tuyg'un; 95. Xo'ja Kalon; 96. Xo'ja Bulg'or; 97. Darvozayi o'g'lon; 98. Do'st chehraoqosi; 99. Dastor bandon; 100. Do'rmo'n; 101. Degrezi; 102. Ra'dzada; 103. Zubayda; 104. Zinda (Janda) pil

¹¹⁵ Sadri Ziyo(1867-1931) yillarda yashagan olim. Buxoroning oxirgi qozikalonalardan biri.

Ahmad; 105.Siso`k masjidi; 106.Sarrojon; 107.Siyohgaron; 108.Saraxsiyon masjidi; 109.So`zangaron; 110.Solorhaj; 111.Sari puli Ravg`angaron; 112.Po`sinduzon; 113. Paxtabofon; 114.Poxsa masjidi; 115.Turk Jandi masjidi; 116.To`pxona; 117.Taqiya; 118.Taxti Chahorbog`; 119.Takbandbofon masjidi; 120. Ja'farxo`ja; 121.Ja'far jo`ybor masjidi; 122.Jilavxona; 123.Jo`yi Zard jo`ybor masjidi; 124.Chahor baqqoli; 125.Chohi zanjir; 126.Chahor xarros; 127. Charmgaron; 128. Cho`bboz masjidi; 129.Chahorshanbe qazoq masjidi; 130.Hillabofon; 131.Mirzo Haydari bolo; 132.Mirzo Haydari poyon; 133.Havzi Arbob; 134.Hazrati Hafs masjidi; 135.Xo`ja Amonboy; 136. Hakim sobungar; 137.Qozi Nuriddin; 138.Qutlug` masjidi; 139. Qalmoq masjidi; 140.Qozi Mir Hoshim; 141.Madrasa; 142.Qosim Shayx; 143. Qirg`iz Oyim; 144.Qul Muhammed Hayit; 145.Qatag`on masjidi; 146. Kokula Kalon masjidi; 147.Govkusxon; 148.Kokula xurd masjidi; 149.Quyi xonaqo; 150.Gulobod; 151.Quyi daraxt masjidi; 152.Korxona masjidi; 153. Quy i murg`qash; 154.Kosagaron masjidi; 155.Kemuxtagaron masjidi; 156. Masjidi Arab; 157. Miyonkoliyon; 158.Mag`oki Attori; 159.Mirzo G`afur masjidi; 160.Mag`oki ko`rpa; 161.Mehtar Shafi'; 162.Mirzo Mas'ud; 163. Maxdumi A'zam; 164.Mullo Sho masjidi; 165. Muhammad Ali masjidi; 166. Muhammadbek; 167. Mohtob; 168.Modari Xon; 169.Mirzo Ibrohim; 170. Miskin masjidi; 171.Mirjon keldi masjidi; 172.Mirzo Usmon; 173. Mir Tabib; 174.Mir Tuhur devon masjidi; 175.Mullo Xoki roh masjidi; 176.Masjidi Baland; 177.Mirzo Bahrom; 178. Mullo Payravi; 179.Mirzo Ubayd; 180. Mir Arab masjidi; 181.Mehtar o`roq; 182.Mirjon Ali; 183.Mulloyon masjidi; 184. Morkush masjidi; 185.Mihtar Orif; 186. Mirzajon qassob masjidi; 187. Mihtar Qorijon; 188.Muhammad Qosim; 189.Mihtar Anbar masjidi; 190. Maddaxon; 191.Mixgaron; 192.Muftizoda; 193.Masjidi kunjak; 194. Mudda'iy masjidi; 195.Mavlavi Mirzajon; 196.Musulmon inasi; 197. Nazarchi; 198. Xo`ja Nizomiddin Bolo masjidi; 199.Xo`ja Nizomiddin Poyon masjidi; 200. Nazar qo`rchi; 201.Nazar Vays; 202. Masjidi Voldi xoni shahid (Abulfayzxon); 203.Yalangi Boqijon masjidi; 204.Hazrati Imom masjidi; 205. G`o`za Jallob masjidi; 206. Qalandarxona masjidi; 207. Hazrati Boboyi Shavq; 208.Namadiy

masjidi; 209.Hazrati Xo`ja Ismat; 210.Hazrati Mir Kulol Hazrati Bahovuddin; 211.Qasri Orifon; 212. Shayxul a'lam. 213. Poyandabiy masjidi; 214. Xo`ja Ka'b al-ahbor; 215. Xonaqohi Fayzobod.

Masjidlar vaqf mulki hisoblangan. Ularni ta`minlash uchun pul ajratilib turilgan. Ko`plab masjidlar qoshida maktablar bo`lgan.

Ulardan ko`pchiligi masjid bilan bir vaqtda qurilgan. Ularning binosi va gumbazi masjidga qaraganda kichik bo`lgan. Ko`plab masjidlarda tahoratxona va g`uslxonalar bo`lgan.

Shia mazhabi vakillari namoz o`qiydigan joylari – husayxona deyilgan. Buxoro shahrida 4 ta husaynxonalar bo`lgan. Shundan uchtasi Jo`ybordagi Janafaron, Morkush va Hovuzibaland kvartallarida. To`rtinchisi To`pxona kvartalida bo`lgan.¹¹⁶

Buxoroda XX asrda madaniy-ma`rifiy hayotning yoritilishi haqida gapirganda boshqa millat vakillarining e`tiqod joylarini aytish maqsadga muvofiq bo`lar edi. Xususan Buxoroda yahudiylarning ikkita sinagogasi(kaneso) mavjud bo`lgan. Birinchisi – Eski mahallada, ikkinchisi – Amirobod mahallasida.

Buxoro islom dinining markazi bo`lgan. Buxoro shahriga odamlar ilm olish uchun nafaqat Buxoro amirligidan, balki O`rta Osiyo, Orenburg, Qozon va hatto Qrimdan ham kelgan. Buxoroda ilm-fan rivojida madrasalar alohida o`rin tutgan. O`rta asrlarda Buxoroda yetuk olim va fozil kishilar yetishib chiqgan. Aynan shu narsa Buxoroning dovrug`ini dunyoga tanitgan edi. Lekin XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida Buxoroda ilm-fan ham biqqlikka uchradi, davlatda jaholatparastlik, sxolastika, qoloqlik avj olgan edi. G`arb va Rossiyada allaqachon eski feodal tartiblar yemirilib, ishlab chiqarish va sanoatda inqiloblar bo`lib, yangi kapitalizm davriga o`tgan edi. Ilm-fanda dunyoviy ilmlar yetakchi bo`lib, texnika, neft kimyosi, fizika, metallurgiya kabi yangi fanlar yuzaga kelgan edi. Eng asosiysi dunyoda kuchlar muvozanati o`zgarayotgan, bo`lingan dunyoni qaytadan bo`lib olish siyosati kechayotgan edi.

¹¹⁶ Сухарева О.А. - Бухара конца XIX - начала XX в. (Позднефеодальный город и его население). – С.70.

Buxoro hukumati faqat o`z manfaati, aysh-ishratini o`rniga xalq manfaatlarini ko`zlab, jamiyatni ijtimoiy-siyosiy jihatdan yangilash uchun davlatda islohotlarni amalga oshirganida, yillar davomida to`plab yotgan molu-davlati bilan ruslar domiga tushib ketmas edi. Madrasalardagi eskicha o`qitish tizimi, mutaassiblik, jaholatparastlik va zamonaviy dunyoviy ilmlarning yo`qligi yetuk kadrlarning yetishib chiqishi uchun to`g`anoq bo`layotgan edi.

“Tarixiy nofeiy” asarida Buxorodagi madrasalar va uning o`qitish tizimini yoritib bergan. Lekin madrasalardagi ahvol, o`qitish tiziminig darajasi to`g`risida tanqidiy baho bermagan. Bunga sabab muallifning o`zi ham zamonaviy bilimlar, siyosat fani to`g`risida ko`p tushunchaga ega bo`lmanidan yoki asarni yozish uchun iltimos qilgan yoru birodarlarining amir hukumati tarafдорлари bo`lganidan shundaymi buni bilmadik. Lekin Buxorodagi madrasalarning soni, mudarrislarning darajalari to`g`risidagi fikrlari diqqatga sazovor.

Shuni ham ta'kidlash lozimki, XX asr boshida ilm va fan bobida boshqa o`lkalarga qaraganda Buxoroning imkoniyatlari kengroq bo`lgan.

Buxorodagi madarasalarda ta`lim oluvchilarning ko`pchiligi Ufa, Qozon, Troitsk, Orenburg, Oqmachitlik savdogarlarning va Urgench, Marvlik va boshqa boytlarning farzandlari bo`lgan. Amirlikning Ko`lob, Baljuvon, Qorategin, Darvoz, Hisor, Shaxrisabz tumanlaridan madrasalarda ta`lim olishgan.

Madrasalarda ta`lim taxminan 20 yil davom etgan. Dastlabki uch-to`rt yillik ta`limdan so`ng mullobachcha- mudarris mansabini olgan. Keyingi ikki - uch yilda dahyak mansabini olgan. Dahyakka erishganlar stipendiya olganlar. Uning miqdori 120 tanga bo`lgan.¹¹⁷

Rempelning ma`lumotiga ko`ra XIX asrda Buxoroda 60 ga yaqin yangi madrasa qurilgan. Madrasalarning ko`plab qurilishi Amir Shohmurod(1785-1800) va amir Haydar(1800-1826) hukmronligi davrida ilm dargohlari sifatida qurilgan bo`lsa, amir Nasrullo davridan boshlab, foyda olish uchun qurilgan.¹¹⁸

¹¹⁷ Ремпель Л.И. Далёкое и близкое. -Страницы жизни, быта, -Строительного дела, ремесла и искусства старинной Бухары. – С.49-50.

¹¹⁸ Osha joyda.

Madrasalar “a’lo”, “avsat”(o’rta), “edini”(quyi)larga bo’lingan. Ularda 10 mingga yaqin mullobachcha, mudarris va imomlar faoliyat olib borgan.¹¹⁹

Tarixi nofeiy ”da keltirilishicha Buxoroda taxminan uch-to’rt ming talaba o’qigan. Dars beruvchi mudarrislarning soni taxminan 800 nafar bo’lgan. Buxoroi sharifning a’lo darajali mudarrislariiga ehson-qozi ul-quzzot, ehson-raisi kalon, ehson-shayx ul-islom, ehson-oxun, ehson-a’lam va ehson-muftiy askarlar kirgan. Bundan tashqari, shariat fatvolari sohasidan dars beruvchi muftiyalar ham bo’lgan. Ularning soni 22 nafar bo’lgan. Ular a’lo va avsatlar bo’lib, o’rta darajali mudarrislarga bo’linganlar. Bu muftiyalar o’roqlik mansabiga erishishi mumkin bo’lganki, u eshik oqoboshi amali darajasiga teng kelgan, shu bilan birga sudurlik, sadrlik, shayx ul-islom, naqiblik, miri asadlik mansablariga ham yetishganlar.¹²⁰

“Tarixi nofeiy ”da keltirilishicha madrasada ma’lum vaqt ta’lim olgach "Hidoyai sharif"ni o’qib tugatishlari bilan amir buyrug’iga ko’ra dahyak (ushr) berilgan. Agar tolibi ilm tahsili ilmda peshrav bo’lsa yoki bundan ham ko’p bilimlarga ega bo’lgan bo’lsa, "Hidoyai sharif"dan o’qitib , imtihon qilib dahyak (stipendiya) bergenlar, mansabdor qilganlar. Dahyakdor mansabiga ega bo’lish Buxoroning islomiy qonunlaridan biri bo’lgan.

Muhammad Ali Baljuvoniy ham imtihon topshirib, dahyak(ushr)ga sazovor bo’lganini yozib qoldirgan: “Banda 1337 hijriy yili (milodiy 1919 yili) hazrati ehson qozi kalon huzurlarida "Hidoyai sharif" dan

"Kitobi nikoh", "Avliyo va akfo" bobini o’qib, dahyak olish uchun imtihon topshirib dahyakga musharraf bo’lgan edim”.¹²¹

Mudarrislarning yana bir jamoasi - "banoraspo’sh" - (banoras kiyinadigan)lar bo’lgan, banoraspo’shlikdan chiqqanlari muftiy mansabiga erishganlar. Ular taxminan 200 nafar bo’lgan. Bularni yana "avsata tadrisi" - o’rta mudarrislар ham deyishgan. Yana bir guruh - "asfal tadrisi" (past darajadagi) mudarrislар hisoblangan. Ularni "beqasabpo’sh"lar deyishgan. Yana imom,

¹¹⁹Ремпель Л.И. Далёкое и близкое. -Страницы жизни, быта, -Строительного дела, ремесла и искусства старинной Бухары. – С.50.

¹²⁰Мухаммад Али Балжувоний. Тарихи нофей. – Б.33.

¹²¹ O’sha joyda – Б.34.

mudarris va shunga o'xshashlari ham borki, ularning soni uch yuzdan ko'proq bo'lgan.¹²²

Madrasa, masjid, maqbara, maktabxona va qorixonalarning har biriga vaqf tayinlangan. Madrasalarning hujralarida oldi-sotdi ham qilingan. Ammo podsholik madrasalari(hujralari)ning oldi-sotdisi man qilingan. Buxoroda xalq ta'limi mullalar qo'lida bo'lgan. Orenburgda chiqgan "Sho'ro" gazetasining ma'lumotiga ko'ra Buxorodagi Ja'farxo'ja madrasasiga eng ko'p (250 ming tanga) vaqf daromadi tushgan. Undan keyin Gavkushon, Ko'kaldosh, Jo'ybor, Mir-Arab, Tursunjon va boshqalari egallagan. Vaqlarning ko'pligi madrasaning katta-kichikligida emas, balki shu madrasalarda xizmat qiladigan eshon, oxund, a'lamlarning qanday obro' va mavqega ega ekanligida bo'lgan. Chor Rossiysi bosqini arafasida madrasalarning vaqfdan oladigan foydasi to'rt million yetti yuz qirq to'qqiz (4749000) ming tangani tashkil etgan.¹²³

Sayid Mansur Olimiyning "Buxoro – Turkiston beshigi" asarida ham madrasalardagi vaqf daromadi miqdori ko'rsatilgan.¹²⁴

Madrasalardagi vaqf daromadlari paylarga bo'lingan. Paylarning bir qismi masjidda ishlaydiganlarga, qolganlari esa hujra egalariga tekkan. Asosiy daromad hujra egalariniki bo'lgan. Hujralarni sotib olish mumkin bo'limgan, lekin tijoratchi va boylar buni yo'lini topib, hujradagi buyumlar (chelak, supurgi va hokazolar)ni sotib olishgan va shu hujjat bo'yicha hujraga egalik qilishgan.

Rempelning ma'lumotiga ko'ra madrasada ta'lim oktabrdan boshlangan. Bu vaqtida qish uchun - yog', guruch, tuz, quruq choy, kerosin, shag'am, sovun, ko'mir va o'tin g'amlab qo'yilgan. Ular har bir hujrada alohida saqlangan.¹²⁵

Sadriddin Ayniy bergan ma'lumotga ko'ra madrasada ta'lim mezon(22 sentabr) oyidan boshlanib, hamal (22 mart) oyigacha davom etgan.¹²⁶ Sadriddin Ayniy madrasadagi o'qitish tizimi to'g'risida ma'lumot berarkan, madrasadagi

¹²² Мухаммад Али Балжувоний. Тарихи нофей. – Б.35.

¹²³ Ремпель Л.И. Далёкое и близкое. -Страницы жизни, быта, -Строительного дела, ремесла и искусства старинной Бухары.- С.49.

¹²⁴ Сайид Мансур Олимий. Бухоро-Туркистон бешиги. –Б.13.

¹²⁵ Ремпель Л.И. Далёкое и близкое. -Страницы жизни, быта, -Строительного дела, ремесла и искусства старинной Бухары. –С.141.

¹²⁶ Садриддин Айний. Бухара(Воспоминания). Ч II. –С.3.

o`qitish tizimi eskirgan bo`lib, 4 - 5 asrdan beri bir xil programma asosida olib borilayotganligini, 20 yillik programmani 4-5 yilda o`qish mumkinligini ham aytgan.

Buxoroning Miri Arab madrasasida o`qigan Sadriddin Ayniy Buxoro madrasalaridagi o`qitish tizimi to`g`risida quyidagi fikrlarini bildiradi: "Buxoro madrasalarini bitirgan ayrim kishilargina savodli bo`lib chiqishardi. Bunaqa insonlar kamdan – kam bo`lib, sho`rxokli sahroda o`sigan mevali daraxtga o`xshaydi. Ular quruq safsataga asoslangan bahslarda, o`qitish programmasini quruq yod olganida emas, balki o`zlarining bilimi, boshqalardan farqli qobiliyati va qunt bilan o`z ustida ishlashi natijasida bilimga ega bo`ldilar".¹²⁷

Buxorodagi madrasalarning soni to`g`risida ham turli xil ma`lumotlar uchraydi. Muhammad Ali Baljuvoniy "Tarixi nofeiy" asarida 400 ta madrasa borligini, shundan 79 tasini nomini yozib qoldirgan. Ular quyidagilar:

1.Ko`kaldosh madrasasi. 2.Devonbegi madrasasi. 3.Muhammad Nazar madrasasi. 4.Govkushon madrasasi. 5.Mirzo Bahrom madrasasi. 6.Muhammad Sharif madrasasi. 7. G`oziyon madrasasi. 8.G`arbiya madrasasi. 9.A'lam madrasasi. 10.Pushaymon madrasasi. 11.Abdulhafiz madrasasi. 12.Rashid madrasasi. 13.Modarixon madrasasi. 13.Xo`rjin madrasasi. 14.Mullo Hasan madrasasi. 15.Al Banoqo madrasasi. 16.Qurbon Attor madrasasi. 17.Qurbon Go`rkov madrasasi. 18.Fatxullo Qo`shbegi madrasasi. 19.Mavlono Sharif madrasasi. 21.Chuqr madrasasi. 22.Zargaron madrasasi. 23.Kamol xo`ja madrasasi. 24.Bozori cho`p madrasasi. 25.Miskin madrasasi. 26.Badalbeki Ko`hna madrasasi. 27.Badalbeki Nav madrasasi. 28.Miri Arab madrasasi. 29.Olimxon Nav madrasasi. 30.Tursunjon madrasasi. 31.Afg`on madrasasi. 32.Ayoz madrasasi. 33.O`tkur Qo`shbegi madrasasi. 34.Hoji Zohid madrasasi. 35.Husaynboy madrasasi. 36.Mirzo Hamdam madrasasi. 37.Atoliq madrasasi. 38.Xo`ja Davlat madrasasi. 39.Cho`bini Hammomi Ko`hna (eski hammomning yog`och madrasasi). 40.Kosagaron madrasasi. 41.So`fiyon madrasasi 42.Sobungaron madrasasi. 43.Turdiali

¹²⁷Садриддин Айний. Бухара(Воспоминания). Ч II. –С.15.

madrasasi. 44.Mirakoni Ko`hna madrasasi. 45.Mirakoni Nav madrasasi. 46.Miyon Molik madrasasi. 47.Jo`ybori Kalon madrasasi. 48.Shayx Jalol madrasasi. 49.Jo`yborcha madrasasi. 50.Xiyobon madrasasi. 51.Chuchukoyim madrasasi. 52.Naqib madrasasi. 53.Salimbek madrasasi. 54.Xalifa Xudoydod madrasasi. 55.Qalmoqjon Oyim madrasasi. 56.Oli Sangin madrasasi. 57.Oli Cho`bin madrasasi. 58.Shayx Islom madrasasi. 59.Qofilon madrasasi. 60.Abdullaxon madrasasi. 61.Muhammad Ali Hoji madrasasi. 62.Asiriya madrasasi. 63.Ahmadjon po`stindo`z madrasasi. 64.Shodmon biy madrasasi. 65.Boloyi Havz madrasasi. 66.Xo`ja Nihol madrasasi. 67.Dor ush-shifo madrasasi. 68.Askarbiy madrasasi. 69.Kofarobodjon Bahodur madrasasi. 70.Fathali dallol madrasasi. 71.Mirzo Ulug`bek madrasasi. 72.Mullo Abdushukurboy madrasasi. 73.Mullo Abdushukur Cho`bin madrasasi. 74.Go`sford madrasasi. 75.Nazarcha Husayn madrasasi. 76.Domullo Sher madrasasi. 77.Sadrbiy madrasasi. 78 .Xalifa madrasasi. 79.Xidirboy madrasasi.¹²⁸

Buxoroning oxirgi qozi kalonlaridan biri bo`lgan Sadri Ziyo (Sharifjon Maxdum) XX asr boshida Buxoroda 204 ta madrasa borligi to`g`risida ma`lumot bergen.

L.I.Rempel esa Buxoroda 170 ga yaqin madrasa bo`lgani to`g`risida ma`lumot bergen.¹²⁹ Feninning Buxoro shahri rejasida va ko`rsatkichlarida, 185 ta madrasa ko`rsatilgan.¹³⁰

Abdurauf Fitrat o`zining “Hind sayyohining qissasi” asarida 1913 yilga kelib, Buxoroda 200 ta oliy, o`rta va quyi bo`g`indagi madrasa bo`lganini yozib qoldirgan. Shu bilan birga 37760000 tanga hisobida vaqf mablag`i bilan ta`minlangan 72 madrasa nomini keltirgan.¹³¹

Buxoro shayxlari va sayidlari haqida ham “Tarixi nofeiy ”da ma`lumot keltirilgan. Bular ham Buxoroning ahli muazzam va mukarramlaridan hisoblangan. Sayidlarga ham amaldorlar kabi qo`sh va tanho ajratishgan. Ahli ulamo kabi ularga

¹²⁸Муҳаммад Али Балжувоний. Тарихи нофейй.—Б.11-13.

¹²⁹ Ремпель Л.И. Далёкое и близкое. -Страницы жизни, быта, -Строительного дела, ремесла и искусства старинной Бухары.—С.49.

¹³⁰ Сухарева О.А. - Бухара конца XIX - начала ХХ в. (Позднефеодальный город и его население). – С.72.

¹³¹ Абдурауф Фитрат. Ҳинд сайёхининг қиссаси. Шарқ ўлдузи, 1991, –№ 8, 15-бет.

ham ma'muriy, sudurlik, sadrlik, mirasadlik va naqiblik mansablarini bergenlar. Shayxlarga ham ma'lum vazifalar berib, mashhur xonaqoh va masjidlar ajratganlar. Ular, asosan, duogo`ylik vazifasini bajarganlar.

III.2. Ma`muriy xo`jalik binolari.

Buxoro qadimdan madaniy rivojlangan, arxitektura yodgorliklariga boy hisoblangan. Uning tarixi uch ming yilga borib taqaladi. Bejizga Buxoroni ochiq osmon ostidagi muzey deyishmaydi. Mustaqilligimiz sharofati va yurtboshimizning say-harakatlari bilan 1997 yilda Buxoroning 2500 yilligi nishonlandi. Bu muqaddas zaminda qadimdan ko`plab olim, fozil kishilar yetishib chiqgan. Bularga misol qilib Abu Ali ibn Sino, Imom al-Buxoriy, Abduxoliq G`ijduvoniy, Bahouddin Naqshband va boshqalarni aytish mumkin. Aynan buyuk olim va avliyolar tufayli Buxoro “Foxira” (Faxrli shahar) degan yuksak nomni olgan.

XX asr boshiga kelib Buxoroda mutaassiblik, qoloqlik avj oldi. Bunga eski va takomillashmagan o`qitish tizimi, davlat amaldorlarining faqat o`zini o`ylab, xalqni talashi kabilarni sabab qilish mumkin. Shu bilan birga tashqi dunyodan ajralib qolishi, chuqur dunyoviy ijtimoiy -iqtisodiy islohotlarning amalga oshirilmasligi davlatni tobora botqoqga botib ketishiga sabab bo`ldi.

Lekin Buxoroning asrlar davomidagi buyukligi sabab, bu davrda ham Buxoro madrasalarida O`rta Osiyo, Kavkaz, Qozon, Qrim hududlaridan kelib, tahsil olishgan, buyuk qadamjolarni ziyorat qilishgan. “Tarixiy nofeiy” asarida muallif Buxorodagi mavjud jamoat binolari bo`lmish mahalla(guzar), masjid, muqaddas qadamjolar, qabristonlar, kutubxonalar to`g`risida ma`lumot bergen. Xususan “Tarixi nofeiy”da bular to`g`risida quyidagilarni yozgan: ”Bu shaharda 196 ta mahalla, 299 ta besh vaqt namoz o`qiladigan masjid, 80 ta qabriston, 13 ta kutubxona mayjud bo`lgan.”¹³²

¹³² Муҳаммад Али Балжувоний. Тарихи нофейй.–Б.15

XIXasr oxiri – XX asr boshlarida Buxoro shahrida mavjud guzarlar to`g`risida turli xil ma`lumotlar mavjud. Buxoro ahli 360 ta guzar mavjudligiga ishonib kelishgan. Bunga sabab o`sha davrda qadimdan saqlanib qolgan odat bo`yicha 360 ta masjid mavjud degan xato fikr bo`lgan. Shu davrda har bir guzarda bitta masjid bor bo`lgan(Ikkita Pistashikanon va Paykana guzarlarida masjid boi`lmagan). Buxoroda 360 ta guzar borligi to`g`risida XVIII asr oxirida Buxoroda bo`lgan Burnashev, Meyendorf va 1820 yil Buxoroda bo`lgan Xannikovlar ma`lumot berishgan. Buxoro amiri Qo`shbegi devonxonasidan topilgan arxiv hujjatda 202 ta guzar nomi keltirilgan.¹³³

Sharqshunos A.L.Kun arxivida u uchun yozilgan boshqa bir mahalliy muallif tomonidan yozilgan hujjatda 197 ta guzar nomi keltirilgan. Shu bilan birga 3 ta alohida yahudiy aholi punktlari ham keltirilgan. Lekin berilgan ro`yxat ostida berilgan guzarlar soniga qarama-qarshi tarzda Buxoroda 230 ta guzar borligi yozilgan.

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Buxoroda nechta guzar mavjudligi to`g`risidagi muammo harbiy xaritashunoslar Parfenov va Feninlarning XX asr boshidagi Buxoro shahar rejasidagi shartli belgilarda bartaraf etildi. Unda 218 ta masjid nomi keltirilgan. Shundan 201 tasi guzar masjidlari hisoblangan. Bu reja Muso Saidjonov tomonidan o`tkazilgan tadqiqotlarda foydalanilgan. Muso Saidjonov bu ma`lumotlarga aniqliklar kiritib, 197 ta guzar borligini aytib o`tgani.¹³⁴

Yuqoridagi ma`lumotlarni o`rganib, tahlil qilgan etnograf O.A.Suxareva XIX – XX asr boshlarida Buxoroda 220 ta guzar bo`lganini aniqlagan. 220 ta son ichiga 3 ta yahudiy aholi punkti ham kirgan.¹³⁵

Buxoro shahri devor bilan o`ralgan bo`lib, unga 11 ta darvozadan kirilgan. “Tarixi nofeiy ”da ham 11ta darvoza nomi keltirilgan. Bular quyidagilar:

1.Qarshi darvozasi, uni Qavola darvozasi ham deydilar. 2.Boboi Poraduz darvozasi. 3.Namozgoh darvozasi, Silohxona (qorxona) darvozasi ham deydilar.¹³⁶

¹³³ Сухарева О.А. Квартальная община позднефеодального города Бухары.– С.58.

¹³⁴ Сухарева О.А. Бухара конца XIX - начала XX в. (Позднефеодальный город и его население).– С.62.

¹³⁵ O`sha joyda.

4.Shayx Jalol darvozasi. 5. Qorako'l darvozasi. 6.Tirgaron darvozasi. 7.Talipoch darvozasi. 8.O'g'lon darvozasi. 9.Hazrati Imom darvozasi. 10.Samarqand darvozasi. 11.Mazori Bahovuddin darvozasi.

“Tarixi nofeiy ”da Buxoroda mavjud qabriston va maqbaralar to`g`risida ham fikr bildirilgan. Unda Buxoroda 80 ta qabriston mavjudligi yozib qoldirilgan. Shu bilan birga mavjud muqaddas qadamjolar to`g`risida ham ma`lumot berilgan: “Buxoroda mashhur avliyo va murshidlarning qabrlari ko`pdir. Men ularni sanab op`taman: Eng birinchisi, avliyolar sarvari bo`lmish Baho ul-haq vad-din¹³⁷, 2. Hazrati Shayx Sayfuddin Shayx ulamo qutbi¹³⁸. 3.Hazrat bobo Shavq. 4. Hazrat Shayx Jamolliddin Boharziy . 5.Hazrati Imlo. 6.Hazrat Xalifa Xudoydod Vali.¹³⁹ 7. Hazrati Xo`ja Muhammad G`injor. 8.Podsho Ismoil Somoni. 9.Chashmai Hazrat Ayyub. 10. Toj ush-sharianing avlod "Sharhi Viqoya" ning muallifi. 11.Xo`ja Chorshanbe, uni Hoshid Gumnom ham deydilar. Arab sultonlaridan bo`lgan ekan. 12.Imom Qozixon. 13.Mullo Ahmad Jandi "Sharhi Aqoid" (asarining)muallifi. 14. Mavlono Shamsuddin Qahistoniy¹⁴⁰. 15.Mavlono Husayn. 16.Xo`ja Nurobod. Imom Abu Hafs, Mir Umoduddinning shogirdi. U esa Abu Hanafiya rahmatlining shogirdi bo`lgan. 17. Hazrat Imom Abu Hafsi Kabir Buxoriy. 18.Hazrat Xo`ja Ismat. 19. Siyovush Vali.¹⁴¹”

Buxorodagi qabrislonlarda buyuk kishilaring qabrlari ustiga sag`ana qo`yilgan. Sag`ana pishgan g`ishtdan qurilgan. Buxoroda qabriston va avliyolar to`g`risida etnograf O.A.Suxarevaning olib borgan tadqiqotlari “Tarixi nofeiy ”dagi ma`lumotlarni to`ldiradi. Suxareva Feninning Buxoro shahar rejasidagi ko`rsatkichlariga asosan Buxoroda 30 ta maqbara mavjudligini yozgan. Bular quyidagilar: 1) Oq-mozor, 2)Xo`ja Ali Atlaspo`sh, 3)Shayx rangrez, 4)Xalfa Huseyn, 5)Xo`ja Bulg`or, 6) Turki Jandi, 7)Xo`ja Amonboy, 8)Mirakon, 9)Xo`ja Kalon, 10)Podsho Ismoil Somoni, 11)Eshoni Imlo, 12)Shayx Jalol, 13)Yozda

¹³⁶ Namozgoh va Silohxona alohida - alohida darvozalar hisoblanadi.

¹³⁷ Xo`ja Bahouddin Naqshband(1319-1389).Xojagon tariqatining ko`zga ko`ringan vakili, buyuk orif va murshid.

¹³⁸ Shayxi olam Sayfiddin Boharziy nazarda tutilmoxda. U zot 1174-1260-yillarda yashagan. Najmaddin Kubro xalifalaridan biri bo`lgan.

¹³⁹ XVIII asrda yashagan. Buxoroda shuhrat topgan ishqiyasining murshidlaridan.

¹⁴⁰ XVI asrda yashagan. “Al-kofiya” asarining shorehi(sharh yozuvchi).

¹⁴¹ Муҳаммад Али Балжувоний. Тарихи нофейй.-Б.14.

birodaron(O`n bir birodar), 14)Xo`ja Chorshanbe, 15)Xo`ja G`unjori, 16)Zindafil Ahmadi Jomi, 17)Hazrat Ayub, 18)Sher Muhammad Juvozkan, 19)Xo`ja Sesaron, 20)Xo`ja G`arib, 21)Xo`ja G`oib, 22)Xo`ja Avliyoyi kabir, 23)Shoxi Aksi, 24)Xo`ja Nurobod, 25)Imom Qozixon, 26) Eshoni ustoz, 27)Xo`ja Girebon chok, 28)Xo`ja Ro`schnoyi, 29)Mavlono Sharif, 30)Eshoni Imlo.¹⁴² Lekin bu to`liq bo`limgan ma`lumot hisoblanadi. Shu bilan birga alohida sulolaviy go`rxonalar(mavzaley)lar ham bo`lgan.

Buxoroda XX asr boshida kutubxonalar faoliyati to`g`risida “Tarixi nofeiy”da ma`lumot bo`lib, 13 ta kutubxona borligi yozilgan. Kutubxonalar to`g`risida ham turli xil ma`lumotlar uchraydi. Rempelning ma`lumot berishicha Buxorodagi kutubxonalar Nasrulloxon davrida xarob bo`lgan ekan. Lekin “Sho`ro”(Orenburg, 1916, №12) jurnalining ma`lumot berishicha Buxoroda 11 ta yirik kutubxonalar saqlanib qolgan va vaqfdan kelgan mablag` ularni saqlanishi uchun ketgan. Bular quyidagi kutubxonalar: Jafar-xo`ja, Gavkushon, Xo`ja-Nihol, Ko`kaldosh, Abdulazizzon, Mirzo Ulug`bek, Badalbek, Doruishifo, Bozori Go`sford, Bolohovuz va Jo`ybor.¹⁴³ Bu kutubxonalar katta madrasalarga biriktirilgan edi va ularning bir qismi hisoblanardi.

“Buxoro-Turkiston beshigi” asarida mavjud bo`lgan kutubxonalarning fondi keltirib o`tilgan: Ja`farxo`ja kutubxonasi - 40000 jild (kitob), Gavkushon kutubxonasi 35000 jild, Xo`ja Nihol kutubxonasi - 3000 jild. Ko`kaldosh kutubxonasi - 32000 jild, Abdullaziz kutubxonasi - 25000 jild, Mirzo Ulug`bek kutubxonasi - 20000 jild, Badalbek kutubxonasi - 15000 jild, Dor ash -Shifo kutubhonasi - 10000 jild, Bozori go`sford kutubxonasi 8000 jild, Boloi havz kutubxonasi - 6500 jild, Jo`ybor kutubxonasi - 3000 jild kitob mavjud bo`lgan.¹⁴⁴

Buxorodagi asosiy jamoat binolaridan biri hammomlar bo`lgan. Ulardan ko`pchilagini qurilishiga 3-4 asr bo`lgan bo`lsa ham ayrimlari hanuzgacha o`zgarmasdan saqlanib kelayapti. Hammomlardan foydalanish odati Buxoroda

¹⁴²Сухарева О.А. Квартальная община позднефеодального города Бухары. – С.84.

¹⁴³ Ремпель Л.И. Далёкое и близкое. -Страницы жизни, быта, -Строительного дела, ремесла и искусства старинной Бухары. – С.143.

¹⁴⁴ Сайд Мансур Олимий. Бухоро-Туркистон бешиги.– Б.13.

qadimdan mavjud. Narshaxiy o`z asarida zamonaviy arab tilidagi “hammom” (buxorocha hambom) so`zini emas balki eski tojik tilidagi- “garmoba” (issiqsuvli) terminini ishlatgan¹⁴⁵. Bundan qadimda hammomlar “garmoba” deb atalgan deyishga asos bor.

Buxoroning bolsheviklar tomonidan bosib olinganiga qadar shaharda mavjud bo`lgan hammomlar soni va ularda yaratilgan sharoitlar shahar hayotining qay darajada rivojlanganidan dalolat beradi. Ularni O`rta Osiyodagi ko`p asrlik shahar madaniyatining yutuqlaridan biri desak bo`ladi. Hammomlarni qurishning usullari, o`ziga xos arxitekturasi, isitish tizimi, maxsus suv o`tqazmaydigan, chidamli xom-ashyolar va boshqa omillar – bularning barchasi ularning qadimdan mavjudligidan dalolat beradi. Bartold XV asrda Samarqandda Ulug`bek davrida hammom qurilgani to`g`risida ma`lumot bergen.¹⁴⁶ Bir asr o`tgandan so`ng Buxoroda hammom qurilganligi to`g`risida rus ekspeditsiyachisi Jenkinson ham ma`lumot bergen.¹⁴⁷

Buxoroda hozirgi kungacha saqlanib qolgan “Keng va marmar polli katta hammomlar”ning ko`pchiligi Abdullaxon davrida qurilgan¹⁴⁸. Bular orasida Sarrofon hammomi ham mavjud.

Hammomlarda quduq yoki hovuz suvidan foydalanishgan va o`zining kanalizatsiya sistemasiga ega bo`lgan. Ular tuzilishi jihatdan bir xil, faqat binolarining soni bilan bir-biridan farq qilgan. Ular tuzilishiga ko`ra: oldingi xona (yechinish va dam olish xonasi), undan ichkariga yo`nalgan gumbazsimon ko`rinishdagi kichik yo`lak bo`lib, u yerda oyoqlar yuvilgan (poysho`yxona), undan o`rta gumbazli xona (miyonsaroy) bo`lib, u yerdan issiq suvga(garmxona), sovuq suvga(xunukxona) hamda ibodat va massaj qilish uchun mehrobga ega bo`lgan gumbazli xonalarga o`tilgan. Issiq va sovuq xonalar orqasida hovuz(xamba) bo`lgan. Hovuz axlat va poxol yordamida ishlaydigan maxsus pech orqali isitilgan. Hammomlarda isitishni ta`minlash uchun o`t yoquvchi (go`lax) va

¹⁴⁵ Наршахий, Бухоро тарихи. –Тошкент: Фан., 1966. – Б.37.

¹⁴⁶ Бартольд В. В, Соч. том II.Ч II// Улугбек и его время.М, Наука, – С. 27

¹⁴⁷ Дженкинсон А, Путешествие в Среднюю Азию в 1558—1560 гг.Л,1932,— С.182.

¹⁴⁸ Шишкин В. А, Города Узбекистана. –Ташкент, 1943, -С.26.

o't yoqish uchun axlatlarni tashiydigan ishchilar mavjud bo'lgan. Hammomda odamlarga qulaylik yaratish maqsadida bir necha uqolovchi(xodimachi) va hammomchi(xaltador) bo'lgan. U yer daromad keltiradigan joy bo'lgan.

Hammomlar xususiy yoki vaqf mulkiga tegishli bo'lgan. 1820 yilda Buxoroda bo'lgan guvohning ma'lumot berishicha, bir kishi yuvinishi uchun 20 pul(tanga) bo'lgan. Buxoro hammomlarining iqtisodiy ahamiyati haqida Filipp Yefremov ham aytib o'tgan.¹⁴⁹

Shaharda odamlar sonining ortishi bilan hammomlarning soni ham ortib boradi. XX asr boshida Buxoro shahrida 18 ta hammom, shulardan 9 tasi erkaklar uchun, 8 tasi ayollar uchun, bittasi erkak va ayollar uchun mo'ljallangan qismlardan iborat bo'lgan¹⁵⁰. L.I.Rempel o'z asarida ayollar faqat ertalabki vaqtarda Kunjak, Shishaxona, Bibi-xalfa hammomlariga borishgan degan ma'lumotni beradi¹⁵¹.

Hammomlarning yarmi ayollar uchun mo'ljallanganligi undan foydalanish Buxoroliklar uchun har doimgi oddiy hol bo'lgan. Buxoroda to'y marosimi oldidan kelinni hammomga olib borish odati ya'ni "hambombaron" odati ham bo'lgan. Bu odat asosan boy forslar va tub joy aholisi tomonidan tantanali marosimiga aylangan¹⁵².

Hammomdasovundan foydalanishmagan. Undan foydalanish harom hisoblangan. Tanani qo'lga kiyiladigan qopcha(xalta) bilan tozalashgan. Hammomlardan nafaqat musulmonlar, balki Buxoroda doimiy yashaydigan boshqa din vakillari ham foydalanishgan. Yahudiylarni ular uchun mo'ljallangan ma'lum vaqtarda G'oziyon, Bozori xo'ja va Poyi Ostona hammomlariga qo'yishgan.

¹⁴⁹ Филипп Ефремов, Девятилетнее странствование, -М. 1950. -С.27.

¹⁵⁰ Fenin tomonidan tuzilgan Buxoro shahri planida quyidagi hammomlar mavjud: erkaklar uchun — 1) Sarrofon yoki Modari-xon, 2) Taxti Chorbog' yoki Mashhadi Qosim, 3) Gavkushon, 4) Abdulloxon yoki Obi- otash, Kofilon yoki Abdulloxo'ja, 6) To'qumdo'zi, 7) Amiri bozori kaf, 9) Misgaron; ayollar uchun—1) Xo'ja Porso, 2) Domullo -sher, 3) G'oziyon, 4) Hazrat- Ayub, 5) Kunjak, 6) Poyostona, 7) Xo'ja Habibullo yoki Xiyobon. Shishaxona hammomi ikkala jins vakillari uchun mo'ljallangan. Qarang: Бухара конца XIX - начала XX в. (Позднефеодальный город и его население) – С.63

¹⁵¹ Ремпель Л.И. Далекое и близкое. Страницы жизни, быта, строительного дела, ремесла и искусства Старой Бухары: Бухарские записи.– С.143.

¹⁵² Сухарева О.А. Бухара конца XIX - начала XX в. (Позднефеодальный город и его население) – С.64

Karvonsaroylar shaharning savdo hayoti uchun asosiy o'rinni egallagan. Karvonsaroylar to'g'risida X asr manbalarida ma'lumotlar mavjud. Narshaxiy Buxoro shahridagi sayyohlar to'xtashi mumkin bo'lgan joylar – rabotlar to'g'risida ma'lumot bergen. Zamonaviy tildagi "Karvonsaroy" (Buxoroda – saroy) atamasi arab tilidagi "rabot" atamasining tojikcha ko'rinishi hisoblanadi.¹⁵³ Bu turdag'i binolar Narshaxiy o'z asarida keltirgan Isxijkat kabi savdo hududlarida va Ismoil Somoniy tomonidan Buxoroning Samarqand darvoza qismida qurilgan rabotlarni aytish mumkin¹⁵⁴.

Karvonsaroylarning soni shahar savdo aylanmasini ko'rsatib bergen va savdoning rivojlanishi natijasida ko'payib borgan. O'rta Osiyodagi shaharlar ichida Buxoro va Toshkent karvonsaroylarning soni jihatdan yetakchilik qilishgan. XIX asrning 60-yillari oxirida Kitobda 3 ta, Shaxrisabzda 7 ta karvonsaroy bo'lgan bo'lsa¹⁵⁵, Masalskiy ma'lumot berishicha XX asr boshida Shahrabzdag'i karvonsaroylar soni to'rt marta oshadi va 28 tani tashkil etadi. Bu vaqtida Xivada "bor yo'g'i" bir necha karvonsaroy mavjud bo'lgan¹⁵⁶. Toshkentda XVIII asrda 13ta karvonsaroy, XX asr boshida esa 45 ta bo'lgan¹⁵⁷.

Buxorodagi karvonsaroylarning soni haqida turli xil ma'lumotlar mavjud. Filipp Yefremov ma'lumotiga ko'ra faqat shaharning Chorsu qismida 4 ta pishgan g'ishtdan qurilgan karvonsaroy mavjudligini ta'kidlagan. Xanikovning fikricha XVIII asr o'rtalarida Buxoroda 38 ta Karvonsaroy bo'lib, shundan 24 tasi g'ishtdan, 14 tasi yog'ochdan qurilganini yozib qoldirgan¹⁵⁸. XX asr boshida Buxorodagi karvonsaroylar soni 60 tadan ortib ketgan (Kapitan Feninning Buxoro shahri planida(XX asr boshi) va undagi eksplikatsiyasida 60 ta karvonsaroy berilgan. M.S.Yusupovning ma'lumotiga ko'ra ularning soni 70 tadan ortadi.Uning materiallarida quyidagilar berilgan: 1) Saroyi Jannat-makoni, 2) Saroyi domullo Sher, 3) Saroyi Hakim-oyim, 4) Saroyi Xo'ja Kalon, 5) Saroyi podshohi yoki

¹⁵³ Сухарева О.А. - Бухара конца XIX - начала XX в. (Позднефеодальный город и его население) – С.52.

¹⁵⁴ Наршахий, Бухоро тарихи, Тошкент, 1966. – Б 37.

¹⁵⁵ Кун А, Очерки Шегрисябского бекства, СПб., 1880, –С. 24, 29.

¹⁵⁶ Масальский В.И, Туркестанский край,СПб., 1913, – 666 с.

¹⁵⁷ Сухарева О.А.Бухара конца XIX - начала XX в. (Позднефеодальный город и его население) –С.52.

¹⁵⁸ O'sha joyda, –Б.54

Saroyi Qo'shbegi (Saroyi Qozi-Kalon), 6) Saroyi Shonataroshi,7) Saroyi Mirzogul, 8) Saroyi Qarshi, 9) Saroyi sanduq, 10) Saroyi Matati-tillo, 11) Saroyi Badriddin. 12) Saroyi chiti-chatti, 13) Saroyi G'ulomjon, 14) Saroyi latta,15) Saroyi Sayfiddin, 16) Saroyi Barriko'hna, 17) Saroyi Rashid, 18) Saroyi Jo'rabek, 19) Saroyi Xo'jayi xurd, 20) Saroyi Hindi, 21) Saroyi Barri nav, 22) Saroyi Qo'shbegi, 23) Saroyi Sindal (Sindel), 24) Saroyi no'g'ay, 25) Saroyi karvon-boshi, 26) Saroyi Qapkoz (avval — saroyi Hindi), 27) Saroyi Abdullojon, 30) Saroyi Urganch, 31) Saroyi sangin, 32) Saroyi sanduk, 33) Saroyi Avezbadal, 34) Saroyi chinni, 36) Saroyi Ulug'bek, 37) Saroyi Ahmadi kalla, 38) Saroyi Ayoz, 39) Saroyi Fatullojon, 40) Saroyi Badalbek, 41) Saroyi pushaymon, 42) Saroyi shakar, 43) Saroyi Qozi Kalon, Saroyi choy, 44) Saroyi mullo Oston, 45) Saroyi urganji, 46) Saroyi Zohidjon, 47) Saroyi Mirzo-Fozil, 48) Saroyi So'xta yoki Ushturxona, 49) Saroyi Rajabbek, 50) Saroyi buzg'unch, 51) Saroyi Poy-ostona, 52) Saroyi meshi, 53) Saroyi kavshu mahsi, 54) Saroyi kavshi ko'yna, 55) Saroyi po'sti cho'bin, 56) Saroyi xurjin, 57) Saroyi abresho'm, 58) Saroyi tamaki, 59) Saroyi qolin, 60) Saroyi kurta,61) Saroyi po'st, 62) Saroyi sangin. Undan tashqari qishloq xo'jalik mahsulotlarini saqlaydigan zahira uylari bo'lib, ular Buxoroda "saroy" deyilgan: 1) Saroyi mayiz, 2) Saroyi jav, 3) Saroyi zig'ir (bu yerda o'simlik yog'i bilan savdo qilishgan), 4) Saroyi anor, 5) Saroyi g'o'za , 6) Saroyi sabzi, 7) Saroyi g'o'lung(o'rik), 8) Saroyi angisht, 9) Saroyi tarosha(o'tin), 10) Saroyi qapponi brinj(guruch).

Karvonsaroylar qurilishi jihatdan Buxoroda odatda ikki etajli bo'lib, ko'pincha g'ishtdan yoki yog'ochdan qurilgan. Ular atrofida buyumlarni saqlash uchun ayvonli yoki yerto'laga ega bo'lган hovli bo'lган. Karvonsaroylar alohida-alohida kichkina uychalardan (hujralardan) iborat. Ular ko'plab funksiyalarini bajargan. Karvonsaroylar nafaqat chetdan kelgan savdogarlarning qo'nim topadigan va yuklarini saqlaydigan joy, balki mahalliy yoki boshqa yerdan kelganlar uchun ma'lum vaqt yashaydigan joy vazifasini bajargan. Shu bilan birga mahalliy savdogar o'z idoralari va mollarini saqlash, ba'zi hollarda dam olish vaqtini o'tkazish maqsadida ijaraga olishgan. Karvonsaroylarning ma'lum

hujralarini hunarmandlar ustaxona sifatida ishlatishgan. Karvonsaroy hujralari tabiblar, sudxo`rlar va boshqa ishlar uchun ham ijara berilgan. Buxorodagi bir qism karvonsaroylar boshqa hududdan kelgan savdogarlarga tegishli bo`lgan. Masalan, biri g`ishtdan, ikkinchisi yog`ochdan bo`lgan ikkita xorazmliklarning karvonsaroyi(Saroyi Urganjiho), ikkita tatarlar karvonsaroyi, Buxoroga kishmish olib keladigan Toshkentliklarning karvonsaroyi (Saroyi maizi toshkandiho), bitta choy savdosi bilan shug`ullanadigan afg`onlarning karvonsaroyi va asosan sudxo`rlik bilan shug`ullanadigan hindlarning uchta karvonsaroyi mavjud bo`lgan.¹⁵⁹

XIX asr oxiri - XX asr boshlarida karvonsaroylar uch qismga bo`lingan. Davlatga qarashli(saroyi podshohi), xususiy va vaqf mulki karvonsaroylari. Shu bilan birga bir qismi xususiy va qolgan qismi vaqf mulkiga tegishli bo`lgan karvonsaroylar ham bo`lgan. Bularga misol qilib Saroyi Rashid va Saroyi Hokimoyim kabilarni keltirish mumkin. Karvonsaroylarning kattalari 60-70 hujradan, kichiklari esa 7-8 hujralardan iborat bo`lgan. Karvonsaroylar katta daromad manbai bo`lgan. Karvonsaroyning har bir hujrasi uning qulayliklariga qarab oyiga 5-10 tangaga ijara berilgan. Masalan 32 hujradan iborat bo`lgan Saroyi Jannatmakoni Karvonsaroyi yiliga 1500 tangaga ijara berilgan¹⁶⁰. Ijara puli faqat hujrani ijara olgan kishilardan olingan. Ularning yuklari uchun esa hadya(saroyboni) olingan. Saroyboni karvonsaroyda sotilgan yuklarning m`lum foizidan olingan. Saroybonini yuk keltirgan odam emas, balki uni sotib olgan shaxsdan olingan¹⁶¹. Xulosa qilib aytadigan bo`lsak, XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Buxorodagi hammomlar va karvonsaroylar shaharning qurilish arxitekturasida, balki savdosoti, shaxsiy gigiyena va salomatlik uchun muhim bo`lgan jamoat binolari bo`lgan. Ularning soni va qurilish sifat darajasi shaharning nechog`lik iqtisodiy – ijtimoiy rivojlanganidan dalolat beradi.

¹⁵⁹Сухарева О.А. - Бухара конца XIX - начала XX в. (Позднефеодальный город и его население) – С.57.

¹⁶⁰O'sha joyda, – С.61.

¹⁶¹ Ремпель Л.И. Далекое и близкое. -Страницы жизни, быта, строительного дела, ремесла и искусства Старой Бухары: Бухарские записи. – С.57.

Xulosa.

Buxoro asrlar davomida jahon sivilizatsiyasining markazlaridan biri bo`lib kelgan. Ammo XX asr boshiga kelib jahon taraqqiyotidan orqada qolib ketdi. Ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ma`naviy sohalar haligacha o`rta asr tartibida qolib ketdi. Aynan shu hol amirlikni Sho`ro bosqinchilari tomonidan bosib olinishiga sabab bo`ldi.

Amirlikda ijtimoiy hayot qoloqligicha saqlanib qoldi. Bu narsani aholining ijtimoiy turmush tarzining pastligi, amirlik boshqaruvi tizimidagi poraxo`rlik va bosh-boshdoqlik, harbiy qo`shtinning g`ulomlar, o`g`ri va talonchilardan tuzilganida ko`rsa bo`ldi. Armiyada taktika va harbiy texnika rivojlanmagan edi. Shuning uchun ham 30 ming kishilik Buxoro armiyasi bolsheviklarning 10 mingga ham yetmaydigan qo`shtidan mag`lubiyatga uchradi.

Shunday bo`lsa ham XX asr boshiga kelib amirlik ijtimoiy-siyosiy hayotida ayrim o`zgarishlar sodir bo`ldi. Bularga misol qilib, yangi usul maktablarining joriy qilinishi, gazeta chiqarishga ruxsat berilishi, Buxoro bankining ochilishi va boshqalarda ko`rish mumkin. Lekin bu yangiliklar sahroga tushgan bir tomchi suvga o`xshab ketadi.

Dissertatsiyaning yozilishi davomida olingan natijalar va ilmiy tahlillar asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

1.Buxoro amirligining XX asr boshlaridagi ijtimoiy hayoti, shu davrda yashagan mahalliy tarixchilarning asarlari asosida yoritildi. Mazkur davr ijtimoiy hayotini yoritishda amirlikdagi mavjud tuzumga qarshi bo`lgan Fayzulla Xo`jayev, Fitrat, Sadriddin Ayniy qarashlaridan shuningdek, tadqiqotni yoritishning qiyosiy va xolislik metodlariga asoslangan holda amir saroyida xizmat qilgan Mirzo Salimbek va Sharifjon Maxdumlarning ma`lumotlari asos qilib olindi;

2.”Tarixi nofeiy ” asariga asoslangan holda Buxoro amirligining Sho`ro bosqinchilari tomonidan xalqaro normalarni buzgan holda bosib olishi yoritildi. “Tarixi nofeiy ” asaridagi - boshqa manbalarda uchramaydigan va yangicha ma`lumotlardan foydalanildi. Mazkur ma`lumotlarning haqqoniyligi va xolisligina

ta`minlash maqsadida Buxoroning sho`ro hukumati tomonidan bosib olinishi voqealari yoritilgan asarlar bilan tahlil qilindi.

3. Mang`it amirlari, ularning vakolatlari, shajaras, hukmronlik davrlari to`g`risida ma`lumotlar berildi. Shu bilan birga Buxoroning so`nggi amiri Olimxon shaxsi, hayoti va faoliyati tadqiqotda aks ettirildi. Buxoro amirligi XX asr boshidagi ma`muriy-hududiy tuzilishi: maydoni, ma`muriy bo`linishi, aholi soni, geografik joylashishi, foydali qazilmalari yoritildi;

4. Buxoro amirligining mansab va lavozimlari, ularning vazifalarini ko`rib chiqdik. Shuningdek “otaliq” va “qo`shbegi” mansablarining etimologik kelib chiqishi va ularning qanday vazifani bajarishi to`g`risidagi ma`lumotlar tahlil qilinganda, bu ikki mansab mang`it amirlari hukmronlikka o`tirgan paytdan boshlab, to Olimxon hukmronligi vaqtigacha mavjud bo`lgani va bu mansablarga berilgan vakolatlar o`zgarib borganligini qayd etish joiz. Shu bilan birga “Tarixi nofeiy ” asarida keltirgan mansab va lavozimlar to`g`risidagi ma`lumotlar yoritilganda, ularni shu mavzuga oid ma`lumot beruvchi asarlar bilan qiyosiy tahlil qilinganda, “Tarixi nofeiy ” asarida berilgan ma`lumotlarning ahamiyati katta. “Tarixi Salimi” asarida berilgan amirligidagi 15 ta oliy mansab, tadqiqot ahamiyatini ortiradi.

5.”Tarixi nofeiy ” asari asosida XX asrning 20 -yillariga qadar Buxoro shahrida mavjud bo`lgan madrasalar aniqlandi. Ularning soni va nomlari keltirib o`tildi. Tadqiqotning xolisligini ta`minlash maqsadida shu mavzuga oid boshqa asarlardan foydalanildi. Madrasalarda o`qitish eski tizim asosida bo`lib, o`qitish, quruq yodlash va sxolastikaga asoslangan edi. Bu hol madrasalarda bilimli va yetuk kadrlarning yetishib chiqishiga to`g`anoq bo`lgan. Madrasalar Buxoro amirligidagi asosiy daromad keltiruvchi joylar bo`lgan edi. Bu masalani tahlil qilganda madrasaga keladigan asosiy vaqf mablag`lari amaldorlar, madrasa hujralari ijarachilari va boylar cho`ntagiga borardi. Madrasalardagi ta`lim sifati to`g`risida Sadriddin Ayniy to`liq ma`lumotlar beradi. Tadqiqot jarayonida amirligidagi mavjud bo`lgan maktabxonalarning to`liq tavsifi berildi.

“Tarixi nofeiy ” asarida masjidlar to`g`risida berilgan ma`lumotlar boshqa asarlardagi ma`lumotlar bilan qiyosiy tahlil qilindi. XX asr boshiga kelib Buxoro amirligi butun O`rta Osiyo bo`yicha hali ham islom markazi bo`lib qoldi. Bunga misol qilib, Buxoroga O`rta Osiyo, Qozon, Qrim va Kavkazdan talabalar ilm olish uchun kelganini aytish mumkin.

6. Buxoro amirligidagi jamoat binolari: kutubxona, maqbara, qabriston, karvonsaroy va hammomlar to`g`risida ma`lumotlar keltirildi. XX asr boshiga kelib amirlikdagi kutubxonalar fondi va ularning ahvoli ancha yomonlashdi. Tarixni o`rganishning qiyosiy tahlil metodi asosida Buxorodagi jamoat binolari bir nechta asarlar asosida solishtirilganda, “Tarixi nofeiy ” asaridagi ma`lumotlarning ayrimlari noto`g`ri berilgani aniqlandi. Masalan asarda 299 ta masjid va 400 ta madrasa mavjud deb noto`g`ri ko`rsatilgan. Shu bilan birga Buxorodagi qabriston va maqbaralar muqaddas qadamjo sifatidagi vazifasini saqlab qolgan edi. Bu yerlarga minglab Buxoroliklar ziyorat qilish uchun borganlar. Shuningdek XX asr boshiga kelib, karvonsaroy soni ko`paydi. Buxoro amirligi karvonsaroylari soni jihatidan birinchi o`rinda turardi. Karvonsaroylar mehmonxona, maishiy xizmat uyi va boshqa vazifalarni bajarganini ko`rishimiz mumkin. Karvonsaroylar Buxoro iqtisodi uchun katta daromad keltirardi. Shuningdek Buxoro amirligi ijtimoiy hayotida hammomlar alohida o`rinni egallaydi. Hammomlar Buxorodagi sog`likni saqlash va sanitariya holatini ta`minlash uchun xizmat qilardi. Shu bilan birga amirlikda XX asr boshiga kelib, hammomlar xizmatidan foydalanish kengaydi. Bu hol Buxoro xalqi uchun oddiy holga aylanib qoldi.

“Tarixi nofeiy ” asarida boshqa manbalarda uchramaydigan ma`lumotlar mavjud. Ular quyidagilar:

1. Buxoro va Samarcand shaharlaridagi masjid va madrasalar hamda muqaddas qadamjolar to`g`risidagi ma`lumotlar;
2. Buxorodagi amaldorlarning mansab va amallari;
3. “Kolesov voqeasi”ning tafsilotlari;
4. 1920 yil Buxoro amirligining bosib olinish voqealarining to`liq tafsifi: afq`onlar va urushda qatnashgan odamlar to`g`risida ma`lumot;

5. Sho`ro bosqinidan so`ng Buxorodagi vayronagarchiliklar.

Tadqiqot jarayonida “Tarixi nofeiy” asari XX asr boshlaridagi Buxorodagi ijtimoiy-siyosiy, madaniy hayot to`g`risida qimmatli ma`lumotlar berishini tahlil qildik. Natijada mavzu bilan bog`liq quyidagi taklif va mulohazalar ishlab chiqildi:

-“Tarixi nofeiy” asari XX asr boshlaridagi Buxoronning tarixini yoritishda muhim ahamiyatga ega;

-“Tarixi nofeiy” asaridan Buxoro amirligi to`g`risidagi o`quv qo`llanmalar yaratishda foydalanish;

-Dissertatsiya matni va ilmiy nazariy xulosalari asosida oliy o`quv yurtlari, akademik litsey, kasb-hunar kollejlari talabalariga ma`lumot berish maqsadga muvofiq;

Adabiyotlar ro`yxati

O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov asarları

- I.1. Каримов И. А.Хавфсизлик ва барқарорлик тараққиёт йўлида. 6-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон, 1998. –372 б.
- I.2. Каримов. И. А.Тарихий хотирасиз – келажак йўқ. – Тошкент: Шарқ, 1998. – 32 б.
- I.3. Каримов И. Ўзбек халқи ҳеч қачон, ҳеч кимга қарам бўлмайди.Т.13.– Тошкент: Ўзбекистон, 2005.–160 б.
- I.4. Каримов И. Юксак маънавият–енгилмас куч.–Тошкент: Маънавият, 2008.–176 б.
- I.5. Каримов И. Энг асосий мезон-хаёт ҳақиқатини акс эттириш.–Тошкент: Ўзбекистон, 2009.–24 б.
- I.6. Каримов И. Ўзбекистон мустақилликка эришиш остонасида. Тошкент: Ўзбекистон, 2011.– 440 б.

Maxsus adabiyotlar

- II.1. Абдурауф Фитрат. Рассказы индийского путешественника. /Перевод с персидского А.Н.Кондратьева. – Ташкент: 2007. – 98 с.
- II.2. Абдурауф Фитрат. Ҳинд сайёҳининг қиссаси// Шарқ юлдузи, 1991, № 8, –Б.15.
- II.3. Абдурауф Фитрат. Амир Олимхоннинг ҳукмронлик даври. – Тошкент: Минҳож, 1992. – 62 б.
- II.4. Алимова Д, Рашидов У. XIX аср охири – XX аср бошларида Бухородаги сиёсий ҳаракатлар ва курашлар. – Бухоро. Зиё Ризограф, 2009. – 78 б.
- II.5. Алимова Д. История как история, история как наука. – Ташкент: Узбекистан, 2008. – 278 с.
- II.6. Амир Сайид Олимхон. Бухоро халқининг ҳасрати тарихи. – Тошкент: 1990. – 44 б.
- II.7. Андреев М.С, Чехович О.Д. Арк кремль Бухары. – Душанбе: Дониш 1972. – 164 с.

- II.8. Анке фон Кюгельген. Легитимация Средноазиатской династии мангитов в произведениях их историков. – Алматы: Дайк-пресс, 2004. – 515 с.
- II.9. Бартольд В.В Церемониал при дворе узбекских ханов в XVII веке. / Сочинения т. II. ч. 2. – Москва. Наука, 1962. – С.392.
- II.10 .Бартольд В.В. Бухара. Её памятники и их судьба. / Сочинения т. IV. ч. 1 – Москва: Наука, 1965.
- II.11. Бартольд В.В. История культурной жизни Туркестана. / Сочинения т. II. ч. 1. – Москва: Наука, 1963. – С.144.
- II.12. Бартольд В. В. Улугбек и его время. / Соч. т II. ч 2 – Москва: Наука, – С. 273.
- II.13.Вохидов Ш. Тарихи нофейй. Бухоро амирлиги тарихига оид муҳим манба. //Ўзбекистонда ижтимоий фанлар, 1997. № 9-11, 48-54 бет.
- II.14.Вохидов Ш.Қўқон хонлиги ва Бухоро амирлигига унвон ва мансаблар. Тошкент: 1996. – 32 б.
- II.15.Вильданова А. Б. Подлинник бухарского трактата о чинах и званиях.// Письменные памятники Востока. – Москва. - Ленинград: 1970.
- II.16.Дженкинсон А. Путешествие в Среднюю Азию в 1558—1560 гг. Ленинград, 1932. – С.182.
- II.17.Епифанова Л.М.Рукописные источники по истории Средней Азии периода присоединения к России. – Ташкент: Наука, 1965. – 75 с.
- II.18.Иноятов Х.Ш. Народы Средней Азии в борьбе против интервентов и внутренней контрреволюции. – Москва. 1984. – 345 с.
- II.19.Ишанов А.И. Бухарская Народная Советская Республика. – Ташкент: Узбекистон, 1969. – 382 с.
- II.20.История Бухарской Народной Советской Республики. (Сборник документов). – Тошкент: Фан, 1976. – 484 с.
- II.21.Кун А. Очерки Шегрисябского бекства, СПб., 1880, – С. 24, 29.
- II.22.Масальский В.И. Туркестанский край,СПб., 1913. – 666 с.
- II.23.Мирза Салимбек. Тарих-и Салими. – Ташкент: Академия, 2009. – 330 с.

- II.24.Мирза Бадиъ Диван. Мажмаъ ул-аркам. /Введение, перевод, примечание и приложение А.Б. Вильдановой. – Москва: Наука, 1981. – 328 с.
- II.25.Муҳаммад Али Балжувоний. Тарихи нофей. Тожик тилидан таржима, сўз боши ва изоҳлар муаллифлари Шодмон Воҳидов, Зоир Чориев.– Тошкент: Академия, 2001. – 122 б.
- II.26.Муҳаммад Али ибни Муҳаммад Сайид Балжувоний: Тарихи нофей. – Душанбе: Ирфон, 1994. – Б.3.
- II.27.Ражабов Қ. Бухорога қизил армия босқини ва унга қарши кураш: тарих ҳақиқати. – Тошкент: Маънавият. 2002. –144 б.
- II.28.Ремпель Л.И. Далёкое и близкое. Страницы жизни, быта, строительного дела, ремесла и искусства старинной Бухары. – Тошкент: Гафур Гулом, 1981. – С.304.
- II.29.Садри Зиё. Наводири Зиёя. – Душанбе, 1991.
- II.30.Садриддин Айни. Бухара.Ч II. –Сталинобод, 1949. – 185 с.
- II.31.Садриддин Айний Асарлар. VIII томлик-I, IV ва VIII томлар. – Тошкент Фан, 1965. – 432.
- II.32.Сайид Мансур Олимий. Бухоро-Туркистон бешиги. /Форс тилидан таржима, таржимон номидан сўз боши ва айрим изоҳлар муаллифи Ҳалим Тўраев. – Бухоро, 2004. – 125 б.
- II.33.Семёнов А.А. Бухарский трактат о чинах и званиях и об обязанностях носителей их в средневековой Бухаре.// Советское востоковедение, V. Москва – Ленинград, 1948.
- II.34.Сухарева О.А. Бухара конца XIX - начала XX в. – Москва: Наука, 1966. – 328 с.
- II.35.Сухарева О.А. Квартальная община позднефеодального города Бухары. – Москва: Наука, 1976. – 367 с.
- II.36.Тухтаметов Т.Г. Русско-Бухарские отношения в конце XIX – начале XX вв. – Ташкент: Фан, 1966. – 178 с.
- II.37.Файзулла Хўжаев. Танланган асарлар /I том. – Тошкент: Фан, 1976. – 536 б.

- II.38.Наршахий. Бухоро тарихи- Тошкент.”Фан”.1966. –Б.37.
- II.39.Филипп Ефремов, Девятилетнее странствование -М., 1950. стр. 27
- II.40.История Бухарской и Хорезмской народных советских республик. Наука. 1971. – 253 с.
- II.41.Холиқова Р. Россия-Бухоро тарих чорраҳасида. Монография. – Тошкент: Ўқитувчи, 2005.
- II.42.Шишкин В. А. Города Узбекистана – Ташкент, 1943. – С.26.
- II.43.Ўзбекистонниг янги тарихи. 1-китоб. Туркистон Чор мустамлакачилиги даврида. /Редколлегия: Ҳ. Содиқов, Р. Шамсутдинов, П. Равшанов, Қ. Усмонов. – Тошкент: Шарқ, 2000. – Б.464.
- II.44.Қосимов Ф. Рашидов У. Тарих ва тақдир// Фан ва турмуш. 1995, №41. – Б.5.

